

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**FILOLOGIYA FAKULTETI**  
**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**“Himoyaga ruxsat etildi”**

**Filologiya fakulteti dekani:**

**\_\_\_\_\_ p.f.n. K.Abdullayev**

**«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2018**

**5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish  
(o`zbek tili) ta'lif yo`nalishi bitiruvchisi  
Asqarova Muazzam Hamidullo qizining**

**“TOG'AY MUROD ASARLARINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI”**

**mavzusidagi**

**BITIRUV-MALAKAVIY ISHI**

**“Himoyaga tavsiya etildi”  
O`zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri:  
\_\_\_\_\_ f.f.n. Sh. Abdurahmonov  
\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2018**

**BMI rahbari: filolgiya fanlari  
doktori Hurniso Usmonova**

**Namangan – 2018**

## **MUNDARIJA:**

Kirish.....	3
<b>I BOB. TOG‘AY MURODNING O‘ZBEK ADABIY TILIDA</b>	
<b>TUTGAN O‘RNI. BADIY USLUB.....</b>	5
1.1. Tog‘ay Murod va o‘zbek adabiy tili.....	5
1.2. Badiiy uslub sintaksisi haqida ma’lumot.....	10
1.3. Gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari.....	18
1.4. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.....	25
<b>II BOB. BIR SOSTAVLI GAPLAR. UYUSHIQ BO‘LAKLAR.</b>	
<b>UNDALMA.....</b>	34
2.1. Bir sostavli gaplar.....	34
2.2. Uyushiq bo‘laklar.....	39
2.3. Undalma – uslubiy vosita sifatida.....	41
<b>III BOB. QO‘SHMA GAPLAR. KO‘CHIRMA VA</b>	
<b>O‘ZLASHTIRMA GAP.....</b>	43
3.1. Qo‘shma gaplar.....	43
3.2. Bog‘lovchili va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.....	46
3.3. Bog‘lovchilarning uslubiy vazifasi.....	50
3.4. Ergashgan qo‘shma gap.....	54
3.5. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gap.....	58
Umumiy xulosalar.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	63

## KIRISH

**BMIning dolzarbligii va ahamiyati.** Umummadaniyatni belgilovchi asosiy omil bo‘lgan nutq madaniyati va uslubiyati, badiiy uslubning sintaktik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish hozirgi kunda ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni amalgaoshirish jarayonida o‘zbek tilshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo‘yilmoqda “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.<sup>1</sup> Hozirgi davr o‘zbek tilshunosligini ham yangi ilmiy ishlar bilan boyitish muammosi dolzarb qilib qo‘yilmoqda. Shu ma’noda Tog‘ay Murod asarlarining sintaktik xususiyatlari mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi dolzarblik kasb etadi. Badiiy uslubning sintaktik xususiyatlarini o‘rganish e’tibordan chetda qolib ketadi. Shuning uchun bu ish dolzarbdir.

BMI ning amaliy ahamiyati katta.

1. BMI badiiy uslubning adabiy tilning boshqa vazifaviy uslublaridan farqlanib turuvchi sintaktik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi muhim manbalardan biri sanaladi.
2. Ishda Tog‘ay Murodning sintaktik ifoda vositalaridan foydalanishdagi o‘ziga xos uslubi aks etgan.
3. Tog‘ay Murod ishlatgan sintaktik birliklarning yangi – yangi ko‘rinishlari o‘zbek tilining sintaktik stilistika sohasida qo‘shishgan yozuvchining munosib hissasi deyish joizdir.
4. Yozuvchining sintaktik ifoda vositalari yaratishdagi dadilligi tilshunoslari oldiga bu holatlarni adabiyot olamidan o‘zbek tili ko‘zgusiga olib o‘tish va uni sintaktik stilistika nuqtai nazaridan kengroq tadqiq etish vazifasini qo‘yadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 23 декабрь, №258.

Ishda Tog‘ay Murod asarlari amaliy jihatdan tahlil etilib, nazariy xulosalar chiqariladi. Bu xulosalardan oliv uquv yurtlari va kollejlarda nutq madaniyati va uslubiyati sohasidagi mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

### **BMIning maqsad va vazifalari:**

Ishning maqsadi Tog‘ay Murodnинг “Otamdan qolgan dalalar”, ”Ot kishnagan oqshom”, ”Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” asarlarining sintaktik xususiyatlarini aniqlashdir. Shu maqsadga erishish uchun ish oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ydik:

1.O‘zbekiston mustaqillika erishgach, uning funksional doirasi kengayib borganini, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy, so‘zlashuv kabi nutq stillari leksik-morfologik belgilari bilangina emas, balki sintaktik jihatlari bilan ham o‘zaro farqlanishini izohlash.

2. Badiiy uslubning sintaktik xususiyatlari ilmiy talqini borasidagi fikrlarni, qarashlarni tahlil qilish, bir nuqtaga jamlash hamda shu hodisani to‘la qamrab olib o‘rganish.

3. Badiiy uslubning sintaktik xususiyatlarini aniqlashda Tog‘ay Murod asarlarining o‘rni, vazifasi, mohiyatini yoritish.

4. Tog‘ay Murod asarlaridan olingan misollardan foydalangan holda badiiy uslubning sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish.

5. Badiiy uslub talabiga mos ravishda Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan sintaktik birliklarni o‘rganish.

6. Badiiy stilning boshqa stillardan farqli, o‘ziga xos tomonlarini ochish, Tog‘ay Murod asarlarida umumadabiy tilga hali o‘zlashib ulgurmagan holatlar, so‘zlar, sintaktik birliklar mavjudligini misollar asosida isbotlab berish sabablarini ochib tashlash.

### **Tadqiqot ob’ekti.**

Bitiruv malakaviy ishni yozish uchun yozuvchi Tog‘ay Murodnинг “Odaman dan qolgan dalalar”, ”Ot kishnagan oqshom”, ”Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” asarlaridan tadqiqot ob’ekti sifatida foydalanildi.

Ishda lingvistik tahlil tadqiqot usuliga tayanib ish ko‘rildi.

## **BMIning tuzilishi.**

1. Ish murakkab reja asosida yozilgan bo‘lib, kirish, uch asosiy bob va xulosadan, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va mundarijadan tashkil topgan bo‘lib 65 sahifadan iborat.

# I BOB. TOG‘AY MURODNING O’ZBEK ADABIY TILIDA TUTGAN

## O‘RNI. BADIY USLUB.

### 1.1 Tog‘ay Murod va o‘zbek adabiy tili.

O‘zbek tilini hurmat qilgan, uning boyliklaridan oz bo‘lsada bahramand bo‘lgan va shu asosda unga mehr qo‘ygan har bir kishi, har bir ziyoli bu tilning taqdiriga befarq qaray olmaydi<sup>1</sup>.

Stilistika til haqidagi bilimlarni tilning funksional aspekti va nutq uslublarining lingvistik, ekstrolingvistik muammolari, sintaksis jihatlari haqidagi bilimlar bilan boyitadi.

Sintaktik stilistika sof amaliy ahamiyatga ham ega. Sintaktik stilistikani, uning normalarini bilish nutq madaniyatini oshirishda muhim omildir. Shunga ko‘ra stilistika jamiyatning lingvistik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi, til faktlariga baho berish mazmun va aloqa situatsiyasiga mos til vositalarini tanlash ko‘nikmalarini yaratishga ko‘maklashadi.

Stilistika til vositalarining ekspressiv belgisi, ularning nutq uslublariga xoslanish darajasini o‘rganish, leksika, frazeologiya, morfologiya sintaksisning sinonimik variantlarini aniqlashishga ko‘ra milliy nutq madaniyatining nazariy asosini tashkil qiladi. Umuman, stilistika nutq madaniyatining ko‘pgina murakkab va turli-tuman masalalarini hal qilishning ilmiy asosidir. Nutq madaniyatini ahamiyatining osha borishi sintaktik stilistikaning nazariy va amaliy muammolarini ham mukammal o‘rganishni talab etadi. Ammo sintaktik stilistika umumiyligi nazariy va amaliy masalalaridan yetarli ishlanmaganligi bu fan rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelyapti. Ushbu bitiruv malakaviy ish shu muammoning hal bo‘lishiga qisman bo‘lsa-da qo‘shilgan hissa sifatida maydonga keldi.

O‘zbek tiliga oid ilmiy asarlardan u yoki bu til birligining ayrim stilistik xususiyatlari haqida ba’zi ma’lumotlar berilgan xolos. Ayniqsa grammatik stilistika bo‘yicha maxsus asarlar kam uchraydi. Mavjud ishlardan badiiy uslub leksika haqida fikr yuritiladi.

---

<sup>1</sup> Тожиев Ё. ва бошқалар. Ўзбек нутки ва услубияти асослари – Т: 1994. 3-бет

Tog‘ay Murod o‘zbek milliy adabiyotining noyob vakilidir. U 1948 yili Surxondaryo viloyatining Denov tumani, Xo‘jasoat qishlog‘ida tug‘ilgan. Shu qishloqdagi 43-maktabni 1966 yilda tugatib, o‘sha yili Toshkent Davlat dorulfununining jurnalistik fakultetiga o‘qishga kirgan. 1972 yilda universitetni muvoffaqiyatli tamomlagan, respublika radiosiga “Vatandoshlar” tahririyatga bo‘lim muharriri bo‘lib, 1976 yilgacha xizmat qilgan.

Tog‘ay Murod 1976-1978 yillarda “O‘zbekiston fizkulturachisi” ro‘znomasida tarjimon, 1982-1984 yillarida “Fan va turmush” ro‘znomasida bo‘lim muharriri bo‘lib ishladi. 1985-1987 yillarda Moskvada M.Gorkiy nomidagi jahon adabiyoti oliygohida tahsil olib qaytdi. Youvchi o‘z ijodini 1976 yili “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi bilan boshlangan. Bu qissa o‘zbek adabiyotiga tug‘ma iste’dod egasi qilib kelayotganidan darak beradi.<sup>1</sup> Qissada Bo‘ri polvon, Tilloberdi, Abil polvon obrazlarida o‘zbek milliy kurashi badiiy ifodasini topadi. Adibning 1979 yilda bitilgan “Ot kishnagan oqshom” bu umidni chinakam haqiqat, ishonchga aylantiradi. Asar bosh qahramoni Tarlon ot kitobxon qalbiga qadrdon bir odamday kirib boradi.

Yozuvchining 1980 yili chop etilgan “Oydinda yurgan odamlar” qissasi adibnigina emas, o‘zbek milliy adabiyotining noyob namunasi bo‘ladi. Qissa qahramonlari Qoplon va Oymomo farzand orzu-ilinjida kun, oy, yillarni bir-biriga ulab yashashadi.

Hali tug‘ilmagan bolaning bobosi, momosi bo‘lib surriyotni, bir-birini ardoqlashadi. Asar qahramonlari fojeasi umid va yorug‘likka to‘la mungli, hazin qo‘sishq bo‘lib kuylanadi.

Tog‘ay Murodning 1985 yili bitilgan “Momo er qo‘srig‘i” qissasi o‘z g‘oyasi, adabiy yo‘nalishi bilan o‘zga qo‘sishq-qissalardan ajralib turadi. Qissada milliy zamindan oyog‘i uzilgan. Vatan tuprog‘ida yashab, yuragida yurt tuyg‘usi bo‘lmagan 80-yillar mafkurasi “qurbanlari” obrazli G‘arb adabiyoti sig‘indi bandasi bo‘lib qolgan ijodkor misolida o‘zbekona kinoya bilan tasvir etiladi.

---

<sup>1</sup> Мирвалиев. С Ўзбек адиблари. Тош: фан, 1993, 213-бет.

Ijodkor iste'dodli tarjimon hamdir. U 1974 yillarda J.Londonning "Boyning qizi" dramasi va ko'pgina hikoyalarini o'zbek tiliga ag'darib nashr ettirdi. 1980 yili E.Seton-Tomsonning hayvonlar haqidagi mashhur "Yovvoyi yo'rg'a" kitobini mahorat bilan tarjima qilgan.

Tog'ay Murod 1986-1992 yillar davomida ilk romani "Otamdan qolgan dalalar" asarini bitdi. "Otamdan qolgan dalalar" – ramziy roman. Unda butun umr ketmon chopib, mustamlaka yurtda kosasi oqarmay kelgan o'zbek xalqi siymosi Dehqonqul obrazi timsolida tasvir etiladi.

Kechagina yosh yozuvchi, boshlovchi yozuvchi deb yurgan qalamkashlarimiz endilikda nasrimizning etakchi ijodkorlari bo'lib qoldilar.

Tog'ay Murod ana shu ijodkor avlodning tal'antli vakilidir.

Tog'ay Murod adabiyotga tutab emas, yonib kirdi.

Tog'ay Murod qissalari sof milliy o'zbek qissalaridir. Tog'ay Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq liboslarini kiydirsangiz ham o'zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham boshqa xalqqa aslo o'xshaymaydi.

Shu vaqtgacha qiyofasi noaniq biri-biridan farq qilmaydigan, shapka kiydirsang rus, qorako'l qalpoq kiydirsang ozarbayjon, telpak kiydirsang qozoq, yoqasiga kashta tikilgan ko'yak kiydirsang ukrain bo'lib ketaveradigan taxminiy odamlar qissalarimizning asosiy qahramonlari bo'lib keldi. Bu o'z xalqining milliy urf-odatlarini, his-tuyg'ularini bilmaslikdan bo'ldi, so'qirko'ngillik, so'qirko'zlikdan bo'ldi.

Yuksak asarlar yaratish uchun adib rassomdek ranglarni bir-biridan farq qiladigan, bastakordek tovushlarni tiniq eshitadigan bo'lishi kerak. Tog'ay Murod ana shunday rassom adibdir, ana shunday bastakor adibdir.

Mana, u "Ot kishnagan oqshom"da otni qanday tasvirlaydi:

"Birodarlar, o'zi Bo'z ot qanday bo'ladi?

Surpday oppoq bo'ladi. Bordiyu ajdodida bo'lsa to'qqizga qirgarda Tarlon bo'ladi. To'qqiz yoshida Bo'zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo

bo‘ladi. Shundan boshlab, u Bo‘z emas, Tarlon bo‘ladi. Tarlon – xol-xol ot. Tarlon otlar sarasi.

Birodarlar, ot tanimasang, Tarlon ol!”

Talantli adib qalamidan to‘kilgan ush bu satrlarni o‘qir ekanman, xayolimdan bir gap o‘tdi.

“Dom”da yashab umrini o‘tkazgan shaharliklarni o‘yladim. Inson bolasining uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilgan bu jonivorni faqat sirkda, kinoda ko‘rgan shaharlik ukalarimizga adibning bu so‘zlari qanchalik ta’sir qilishini bilaman. Shahar bolalarining tabiatdan, jonivorlardan qanchalik uzoqlashib qolganliklariga achinib ketaman.

Tog‘ay Murod otni shu qadar mehr bilan ta’riflaydiki, adib qo‘sinq aytayotibdi, deb o‘ylaysiz. Adib ko‘ngli kitobxon ko‘ngliga ko‘chib o‘tadi. Ot minib adirlarda uchgингiz, ot yollarini silagingiz keladi.

Tog‘ay Murod tasvirlagan chavandozlar xiyonat ko‘chasiga kirmagan, odamlarga faqat yaxshilik ravo ko‘radigan asl o‘zbeklardir.

Tog‘ay Murodning obrazlari jahon adabiyot durdonalaridagi obrazlar qatoriga kelib qo‘sishdi.

Tog‘ay Murod o‘z ona tilisini benihoya yaxshi biladi. Bilgandayam butun ranglari bilan ohanglari bilan biladi. Shu bois sof o‘zbekcha bitadi.

Tog‘ay Murod o‘zbek tilini kuylatdi. O‘zbek tilining barcha jilvalarini oftobga solib ko‘rsatdi.

“Ayo, Tarlon, sen mening akamsan. Uka desa degulik mendayin ukang bor, aka desa degulik sendayin akam bor, nima g‘amim bor?

Ayo, Tarlon, sen mening birodarimsan, qiyomatlik birodarim...”

Ushbu satrni o‘qib bo‘lgach, xayolga tolasiz. Hozirgina mungli bir qo‘sinq tinglagandek bo‘lasiz.

Bu qo‘sinq olis yo‘l bosib, O‘zbekistonimizning qaynoq, janub Surxonidan uchib keldi.

Men Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida Bo‘ri polvon, Tilovberdi polvon, Abil polvonlarning kurashlarini zavq-shavq bilan tomosha qildim. Surxon polvonlarining halolliklari, tantiliklarini ko‘rib, g‘ururlanib ketdim.

Ana, o‘zbek polvonlari, ana, deya g‘ururlandim.

Tog‘ay Murod tasvirlagan Surxon polvonlari chinakam o‘zbek polvonlaridir. Tog‘ay Murod ham doston yozdi. Otini “Oydinda yurgan odamlar” qo‘ydi.

Qissa nomini o‘qishingiz bilanoq sizni allaqanday sirli-sehrli oydin kecha bag‘riga oladi. Ichingizga ajib bir nur o‘rmalab kiradi. Dilingizni yoritib yuboradi.

Qissada Qoplon bilan Oymomo farzand ilinjida tunni tongga, kunni oyga, oyni yilga ulab yashaydi. Qoplon xotinini Momosi desa, Oymomo erini Bobosi deb chaqiradi. Ular yo‘q bolaning bobosi, yo‘q bolaning momosi bo‘lib, yillarni yillarga ulyaydi. Bir-biriga mo‘ltirab yashaydi. Ular uchramagan doktor, ular ko‘rinmagan tabib qolmadi. Ammo na doktordan va na tabibdan naf ko‘radi.

Tog‘ay Murod bir-birini Bobosi, Momosi deya atab umr o‘tkazayotgan bir juft pokiza insonni oydindagi oy nuriga o‘rab tasvirlaydi. Oqibat, ushbu juftning o‘zi ham, so‘zi ham, turish-turmushi ham oyning kumush nurlariga yo‘g‘rilib ketadi.

Tog‘ay Murodning kuyib, yonib, o‘rtanib bitgan, ba’zan faryod qilib bitgan “Oydinda yurgan odamlar” qissasini “Muhabbat qo‘shig‘i” deb atash mumkin.

“Momo er qo‘shig‘i “ boshqa qissalardan farq qiladi. Tog‘ay Murod bu qissasida boshqa yo‘ldan boradi. O‘z yo‘lidan adashib, oyog‘i erdan uzilib, G‘arb adabiyot soyasi bo‘lib qolgan ijodkorlarning tipik obrazini yaratadi. Shu ijodkor obrazi tufayli qissasiga mayda-mayda toshlar otildi. Asar yutuqlaridan ko‘z yumib o‘tildi. Axir, qaysi soya ijodkor o‘ziga oyna olib qaramaydi, deysiz. Masalan, qissada original bir obraz bor, badiiy baquvvat bir obraz bor. Men serjant Orziqulov obrazini nazarda tutyapman. Serjant Orziqulov o‘zbek adabiyotida mutlaqo yangi obraz.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad aytganiday, Tog‘ay Murod qissa bitmaydi, bor ovozi bilan qo‘shiq aytadi. Bu qo‘shiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor.

Tog‘ay Murod o‘zbek tilining boyishiga hissa qo‘sha olgan, bu yo‘lda tinimsiz mehnat qilayotgan ajoyib yozuvchilarimizdandir.

Biz yozuvchi ijodining sintaktik-stilistik jihatlarini tadqiq etishdan oldin, yozuvchilarining stilistika rivoji sohasiga o‘z asarlari bilan qay yo‘sinda ta’sir ko‘rsatishlari, badiiy uslub uning qonuniyatlari masalalariga to‘xtalib o‘tamiz.

## **1.2. Badiiy uslub sintaksisi haqida ma’lumot**

Yirik olim M.Verli “Still so‘zga qaraganda ko‘proq gapda shakllanadi”, deb juda to‘g‘ri fikr bildiradi. I.R. Galperin “Ocherki po stilistike angliyskogo yazyka” asarida uslubning o‘ziga xos belgilari uning sintaktik qurilishidadir, deb qayd qiladi. A.I.Efimov V.G.Belinskiyning individual belgilar ko‘proq nutqda ko‘rinadi, degan fikrini davom ettirib, “oliy sintaksis”ning stilistika uchun ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tadi.<sup>1</sup>

Stilistika uchun sintaksisining nihoyatda muhimligini A.N.Gvozdev ham ko‘rsatib o‘tadi. “Sintaksisning stilistika uchun juda muhimligini shu bilan belgilanadiki, - deb yozadi u, birinchidan, gap nutqning asosiy birligi sifatida tafakkur va aloqa uchun xizmat qiladi, ikkinchidan, gap rus tilida turli-tuman ko‘rinishga egaligi bilan farqlanib turadi”.<sup>2</sup> Gapda so‘zlarning oddiy tartibining o‘zi turli variantlarni hosil qiladi, turli ma’no yoki ekspressiv ottenkalar ifodalaydi.

Funksional stillarning shakllanishida sintaksis muhim rol o‘ynaydi. Ifoda maqsadi, mazmuni ifoda formasini belgilaydi. Ammo sintaktik birliklar nutqning ma’lum funksional stillari bilan qat’iy bog‘liq bo‘lmaydi. Gapning u yoki bu ko‘rinishi, turli sintaktik konstruksiya va oborotlar ifoda vositalari sifatida nutqning barcha ko‘rinishlarida qo‘llanaveradi. Tilshunsolikning boshqa sohalaridan farq qiladi.

Ayrim sintaktik hodisalar uslubiy vosita sifatida funksional chegaralanganligi bilan o‘ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Masalan, sifatdosh va ravishdosh oborotlar, bog‘lovchilarining ayrim turlari ko‘proq kitobiy nutqqa

---

<sup>1</sup> Ефимов А.И. Стилистика русского языка. –М.: Просвещение. 1989, стр. 5.

<sup>2</sup> Гвоздев А.Н. Очерки по стилистике русского языка. – М.: Учпедгиз, 1985, стр. 259.

xos bo‘lib, ifodaga kitobiy ruh beradi, to‘liqsiz gaplar, ko‘pincha elliptik konstruksiyalar, kesimi undov va harakat nomi bilan ifodalangan gaplar so‘zlashuv nutqida qo‘llansa, poetik sintaksis vositalari badiiy nutq uchun xarakterlidir.

Masalan, ergashgan qo‘shma gaplar, yig‘iq gaplar funksional uslubning bir ko‘rinishida ko‘p, boshqa ko‘rinishida esa kam qo‘llanadi. Ammo bunday hollarda ham gapning konkret tipi, uning tuzilishi, leksik va morfologik tarkibi funksional uslublar uchun umumiylar xarakterda bo‘ladi. Masalan, ergashgan qo‘shma gaplarni bog‘langan qo‘shma gaplar yoki sodda gaplardan farqli ravishda, faqat kitobiy, ilmiy yoki rasmiy idoraviy nutq uchun xarakterli deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu tip gaplar funksional uslublarning barchasida, garchi bir xil me’yori bo‘lmasa ham, qo‘llanaverdi.

Tilning sintaktik vositalari nutqda boy uslubiy imkoniyatlardan hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi o‘zbek adabiy tilida rivojlangan sintaktik hodisalar sinonimiyasi funksional stil uchun tunganmas manbadir. Bunda emotsional-ekpressiv ottenkalari bilan ma’lum ifoda hodisalar oz emas. Biror funksional still uchun tipik bo‘lgan sintaktik hodisalar shular jumlasidandir. Har bir stilning o‘ziga xos sintaktik belgilari bo‘ladi. Ilmiy stilga xos biror matn sintaksisini drama asarlaridagi so‘zlashuv nutqi sintaksisidan farqlash oson. Ammo bu va shunga o‘xshash boshqa masalalar ilmiy jihatdan o‘rganilganicha yo‘q. Mana shuning uchun ham bu o‘rinda ayrim sintaktik hodisalarning o‘ziga xos sintaktik belgilari hiqidagina fikr yuritiladi. Bu belgilar, avvalo, so‘zlovchi shaxsning nutqqa xos bo‘lgan turli maqsad va vazifa uchun foydalanishi bilan bog‘liqdir. Masalan, ilmiy-ommabop stilda so‘zlovchi va yoki yozuvchi diqqati eng avval uning mazmuniga, fikrni izchil va aniq ifodalashga qaratiladi. Bunda nutq formasi to‘laligicha asosiy maqsadga, mantiqqa bo‘ysundiriladi. Bunday nutq o‘ylab tuzilgan bo‘lib, ko‘pincha yozma shaklda bo‘ladi. Yoma nutq deganda ko‘proq mana shu ilmiy-ommabop still ko‘zda tutiladi. Bu logik yoki intellektual nutq deb ham yuritiladi.

Intellektual nutqning sintaktik qurilishi adabiy nutq sintaksisiga o‘xshab ketadi. Ta’limda, asosan, mana shu nutq o‘rgatiladi. Ko‘p sintaktik tadqiqotlar uchun ham mana shu nutq asos bo‘lgan.

Biror stilga xos tipik konstruksiyalarni aniqlash fikr bayon qilishning o‘ziga xos tomonlarini o‘rganishda muhim hisoblanadi.

Ma’lum konstruksiyaning u yoki bu still uchun tipiklik belgisi, uning qo‘llanishi chastotasi, xarekterli arxitektonikasididir. Bunday konstruksiyalarni o‘rganishda ko‘proq statistik metoddan foydalaniladi. Bu metod bilan biror stilga xos xarakterli bo‘lgan konstruksiyalar aniqlanadi. Bu struktura elementlarini mazmun elementlari bilan bog‘lab o‘rganish asosida belgilanadi.

Ayrim stilga xos asarning turli nashrlarini qiyoslash, bir stilga oid turli asarlarning sintaksisini solishtirish ham sintaktik stilistikka uchun muayyan xulosa chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, turli stilga xos bo‘lgan asarlarning sintaksisini qiyoslash ham ma’lum still uchun tipik bo‘lgan konstruksiyalarni aniqlashda muhim omildir.

Ma’lum still uchun, ayrim konstruksiyalarning tipikligi umumiyligi hamda individual xarakterda bo‘ladi. Birinchi holatda shu stilga oid adabiyotlar uchun umumiyligi bo‘lgan konstruksiyalar, ikkinchi holda bunday asarlarning mualliflari uchun xos bo‘lgan konstruksiyalar ko‘zda tutiladi.

Sintaktik stilistika birliklarini belgilash bu sohaning predmetini belgilash demakdir. Ritorika, poetika, adabiyot nazariyasida sintaktik figuralar deb atalmish konstruksiyalar stilistik-sintaksis vositalari deb qaraladi. Bundan tashqari, o‘rinli va original qo‘llangan sintaktik konstruksiyalar ham stilistik voqealar bo‘lib xizmat qiladi. Bundan barcha sintaktik birliklar stilistik vosita hisoblanar ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ayrim sintaktik vositalar o‘z tabiatiga ko‘ra ekspressiv-taviriyligiga hisoblansa, ayrimlari faqat kontekstda ekspressivlikni ifodalaydi. Ekspressiv-tasviriy vositalar, asosan, badiiy poetik, publitsistik va notiqlik uslublari uchun xarakterlidir. Bu hol shu uslublarning tabiatiga ko‘ra, ularda obrzlilik, emotsiyal-ekspressivlikning kuchliligi bilan bog‘liqdir.

Antik ritorikadan boshlab sintaktik figuralar deb atalayotgan ritorik so‘roq, gradatsiya, band, anafora, epifora, takror, antitezalar badiiy-poetik sintaksis birliklari hisoblanadi. Bular o‘zbek badiiy-poetik sintaksisi elementlari hamdir.

O‘zbek tili taraqqiyotining hozirgi bosqichida fuknsional uslublar farqlanib, uning ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy-ish so‘zlashuv kabi uslublari shakllandi. Sintaktik konstruksiyalar nutq uslublarida neytral bo‘lgani kabi funksional xarakterda ham bo‘ladi. Sintaktik stilistika uchun neytral xarakterdagi sintaktik vositalar emas, nutq uslublariga xoslangan funksional sintaktik vositalar muhimdir.

Neytral va funksional sintaksis ish ko‘radi. Lekin bularning nisbati hamma uslublarda bir xil emas. Masalan, ilmiy va rasmiy uslublarida neytrallik ustun bo‘ladi. Badiiy, poetik, publitsistik uslublar uchun neytral sintaksis bilan bir qatorda sintaktik figuralar, inversiya. To‘liqsiz gaplar, sintaktik kopressiya tejamkorlik, emotsiyal-ekspressivlik ifodalovchi boshqa konstruksiyalar xarakterlidir.

Funksional stillar leksik va morfologik jihatdangina emas, sintaktik jihatdan ham bir-biridan farq qiladi.<sup>1</sup> Ammo badiiy nutq stilining sintaktik xususiyatlari haqida yozilgan asarlarning janr bo‘linishlarini e’tiborga olmasdan turib gapishtiq qiyin. Chunki har bir janrning sintaktik strukturasi o‘ziga xosdir.<sup>2</sup>

Adabiyot nazariyasiga oid asarlarda adabiy tur va janrlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Ammo ishlardagi bu tur va janrlar klassifikatsiyasi lingvistik tahlil uchun qulay emas. Masalan, epik tur doirasida qaraladigan asarlarning ayrimlari ham proza ham she’riy yo‘l bilan yozilgan. Bu narsa lingvistik tahlil uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. “Adabiyot nazariyas” asarining mualliflari badiiy asar tilini tuzilishiga ko‘ra farqlaydi va ikkiga proziak va she’riy asarlar tiliga bo‘ladi.<sup>3</sup>

Badiiy nutq stili sintaksisini o‘rganish ham ana shu klassifikatsiyaga tayanish birmuncha maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Prozaik asarlar sintaksisi hozirgi o‘zbek adabiy tilining sintaktik normalarni o‘zida aks ettiradi.

Badiiy nutq uslubi adabiy tilning ifodalanishi bo‘lib, ayrim hollarda ba’zi maqsadlar bilan boshqa nutq ko‘rinishlaridan ham foydalanishga to‘g‘ri keladi.

<sup>1</sup> Кўнгурев Р. Қ., Каримов С.А., Курбонов Т.И. Ўзбек тилининг функционал стиллари. – С.: СамДУ, 1984, 59-б.

<sup>2</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980, 392-б.

<sup>3</sup> Шукуров М. ва б. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1984, 194-240 – б.

Badiiy nutqda dialog, monolog, bayonni qamrab oluvchi so‘zlashuv nutqi keng qo‘llaniladi.

Yozuvchi yoki shoir tilning potensial imkoniyatlaridan keng foydalanib, badiiy nutqda yangi so‘z va yangi iboralarni yaratadi. Masalan, Abdulla Qahhorning sinchalik, guldasta so‘zlarining yangi ma’noda ishlatalishi, G‘.G‘ulomning sho‘xshanlashmoq so‘zini yaratilishi, Maqsud shayxzodaning nuriston, quyoshiston, nurobod so‘zlarini, Tog‘ay Murodning qadahalamoq, qadamlamoq so‘zlarini yaratishi bunga misol bo‘ladi.

Ijodkorlar bu nutq uslubida adabiy til doirasidan chiqib keta olmaydilar.

Badiiy nutq qat’iy normativligi, juda aniqligi, so‘zlarni mohirlik bilan tanlashi, mukammal savodxonligi va muallif nutqining etukligi bilan ajralib turadi.

Badiiy nutqda obrazlilik juda keng qo‘llanadi. Bu nutqda sinonimiya, ononimiya, antonimiya, ko‘p ma’nolilik kabi leksikaning barcha qatlamlaridan keng foydalaniladi. Bularning hammasi ijodkorlarning poetik fikrini ifodalashiga xizmat qiladi.

Badiiy nutq uslubining ta’sirchanligi bilan publitsistik nutqqa yaqin tursa, turli jonli so‘zlashuv vositalaridan foydalanish jonli so‘zlashuv uslubiga o‘xshab ketadi.

Badiiy nutq uslubining o‘ziga xos tomonilaridan yana biri shuki, unda so‘roq, undov, buyruq gaplar keng qo‘llanadi. Badiiy nutq uslubi lingvistik birliklar orqali estetik ma’no ifodalash uchun xizmat qiladi.

Badiiy adabiyot tilini funksional uslublaridan tashqari qarovchilar so‘zning estetik funksiyasini birinchi o‘ringa chiqarishadi.

So‘zning eng muhim va asosiy funksiyasi kommunikatsiya aloqani ikkinchi o‘ringa tushirishadi. Vaholanki, har qanday tilning har qanday so‘zning birinchi vazifasi – aloqa bo‘lgach, bu birinchi o‘rinda bo‘lishi kerak. So‘z aloqa vazifasini bajargandan keyingina estetik fuknsiyasini bajarishi mumkin. Bunga badiiy adabiyot san’at turi sifatida qaralishini asos qilib olishadi. San’at turi bo‘lganda ham estetik zavq so‘z orqali ifoadalanadi: so‘zning kommunikativ funksiyasi ham hamisha birinchi o‘rinda bo‘lishi kerak.

Badiiy uslubning bosh muammosi til va obraz munosabati masalasidir. Har bir funksional uslub ijtimoiy hayotning qaysidir tomonini aks ettirsa, badiiy uslub hayotning barcha tomonini, ya’ni barcha nutq uslublarini qamrab oladi.

V.G. Belinskiy badiiy uslubni ilmiy uslub bilan qiyoslab shunday deydi: filosof sillogizmlar, shoir esa obraz va tasvirlar bilan gapiradi. Ikkalasi ham ishontiradi. Lekin birinchisi mantiqiy dalillar bilan, ikkinchisi tasvirlar bilan iqror qilinadi.

Bir informatsiyani badiiy va ilmiy uslubda ifodalanishini ko‘raylik.

Badiiy uslubda:

Kaftlaringda to‘q bug‘doyning kumushday doni yoki mehring chashmasidan ungan kurtaklar. Bu minglarning nasibasi, elu yurt noni. Bu to‘qchilik to‘kinchilikdan yorqin daraklar.

Ilmiy uslubda – Bug‘doy doni O‘rta Osiyoda besh ming yildan beri ekib kelinmoqda, poyasininguzunligi 30-40 sm keladigan bug‘doyning 9 xili bizning o‘lkamizda ekiladi.

O‘zbek pazandachiligi texnologiya jarayoni mukammallahib, nonning xillari benihoya ko‘paydi. Bu to‘kinlik, ma’murlikdan darak beradi.

Bu ikki uslubni qiyoslashdan ma’lum bo‘ldiki, ularning birida u yoki bu hodisaning mohiyati haqida xabar berilsa, ikkinchisida o‘quvchiga xabar berish bilan birga estetik zavq ham uyg‘otadi.

Badiiy uslubda til, obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy nutq kommunikativ va estetik vazifa bajaradi. “Badiiy uslubning boshqa uslublardan farqlab turadigan asosiy belgisi – deb yozadi A.I. Efimov, - uning estetik funksiyasi, obrazliligi va ekspressivligidir”! Bu hol uning umuman uslubini, jumladan, sintakti qobig‘ini belgilaydi.

Badiiy uslubning qo‘llanish doirasi juda keng bo‘lib, tematik va stilistik tomondan chegaralanmagan. Bunda barcha uslub imkoniyatlaridan foydalilanadi, shu bilan birga, adabiy til normalaridan chekinilishi mumkin.

Badiiy uslubning o‘ziga xos sintaktik belgilari umumxalq tilining boy imkoniyatlaridan qanchalik o‘rinli foydalanishganini aniqlash orqali ochiladi.

Umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga gap qurilishining tayyor va qat’iy lashtirilgan usullaridan tanlab foydalanish imkoniyatini ham ochib beradi.

Badiiy uslub sintaksisi sifatlovchining keng qo‘llanishi, so‘z tartibining teskari, sub’ektiv tartibga keng yo‘l qo‘yilishi, ritorik so‘roq va undov gaplar, sintaktik figuralarning ko‘p qo‘llanishi kabi holatlar bilan xarakterlanadi.

Badiiy nutqda hayot voqealarining kishilar faoliyatining, xatti-harakati, orzu-o‘ylari obrazlar, manzaralar orqali aks ettirilishi yozuvchining so‘z tanlash xususiyatiga ham ta’sir etadi.

Badiiy adabiyotning ko‘rinishlari ham xilma-xil poeziya, nasr, drama kabi. Ular ham bir necha turlarni qamrab oladi. Poetik nutqqa xos bo‘lgan uslubiy xususiyat dramada bo‘lmasligi mumkin yok aksincha. SHuning uchun badiiy uslubni o‘rganish ko‘lami keng, bu ishlar bo‘yicha ayrim ishlar bajarilgan.

Fikrni to‘g‘ri va ta’sirchan ifodalashda sintaktik sinonimiya imkoniyatidan keng foydalilanadi. Sintaktik sinonimiya nutq uslublarini farqlashda muhim stilistik vositadir. Tushuncha yoki fikrning u yoki bu ifoda varianti nutq uslubining ma’lmu turi uchun tipik bo‘lsa, boshqasi uchun tipik bo‘lmasligi mumkin.

Sintaktik sinonimiya konotativ, bir xil ma’noli sintaktik birliklardir. Bular strukturaga ko‘ra bir xil bo‘lishi shart emas. Struktura jihatdan turlicha bo‘lgan sintaktik birliklar va qo‘shimcha ma’no ottenkasiga ega bo‘lib yoki biror uslub uchun xarakterli bo‘li, sintaktik bir xil ma’noli sinonimiya hosil qilish mumkin. Bunda sodda gap bilan qo‘shma gap, bir sostavli gap bilan ikki sostavli gap, ravishdosh oborot bilan sodda gap bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar bilan bo‘laklarga ajraladigan gaplar va tipik konstruksiyalarning sinonimiya hosil qilishi mumkinligi ko‘zda tutiladi. Stilikada sinonimiya va variant tushunchasi farq qilinadi. Sinonim ma’no ottenkasini ko‘rsatadi. Variant esa aniq ma’no ottenkasiga ega bo‘lmaydi. U bir ma’no ottenkasi doirasida bo‘ladi. “Variantlar, - deb yozadi E.I. SHendele – sinonim hisoblanmaydi, ular yo ma’no jihatdan bir xil dublet

bo‘ladi yoki ma’nosidagi farqi grammatik ma’nolari sistemasiga ta’sir ko‘rsatmaydi”.

Umulashgan grammatik ma’no sinonimik gaplarning ma’nosidan kelib chiqadi. Umumiyligi ma’no turlicha usullari bilan ifodalanadi. Sintaktik sinonimiya nutqda mana shulardan tanlab olib qo‘llash imkonini beradi.

Sintaksisga funksional yondashish sinonimik gruppalardan qanchalik o‘rinli foydalanilganligini aniqlashga xizmat qiladi. Tilni yaxshi o‘zlashtirishda sinonimiyaning bilish muhimdir. Yuksak nutqiy madaniylik, - deb yozadi G.A. Zolotova, - fikrni turli usullar bilan ifoda qila olish, kommunikativ vazifaga ko‘ra til vositalaridan aniq va maqsadga muvofig‘ini tanlash olishdadir.<sup>1</sup>

Sintaksis sinonimiya gap bo‘lagi, so‘z birikmasi, gap doirasida bo‘lishi mumkin.

Gap bo‘lagiga oid sinonimiya leksik sinonimiyyaga bir munkcha o‘xshasa-da, farqli tomonlari ham bor: leksik sinonimiyyada leksemalar, ularning leksik ma’nosi hisobga olinsa, sintaktik sinonimiyyada gpa bo‘laklari haqida fikr yuritiladi. Uning ma’nosi bilan bir qatorda strukturasi va formasi hisobga olinadi. Odatda gap bo‘laklarining har biri sinonimiya hosil qilishi mumkin.

Bir sostavli gaplarning bir turida kesim harakat nomi bilan hamda kerak, zarur, lozim, darkor kabi so‘zlarning qo‘shilishidan tashkil topgan konstruksiyalar bilan ifodalanadi. Bular kesim sinonimiyasidir. Harakat nomining qaysi formada kelishi, ko‘rsatilgan so‘zlarning qaysi biri bilan kelishi uslubiy talabga bog‘liq.

Divandan turish kerak. Ust-boshni kiyish kerak. Uyqu xonadan yo‘l bosib o‘tish kerak. Ayvon eshigini ochish kerak. Ana unlan keyin telefonni ko‘tarish kerak. (“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 60-b.).

Bizning jamiyatimizda tekinxo‘rlar va dangasalarga o‘rin bo‘lmasligi kerak. (“Otamdan qolgan dalalar”, 92-93-b.).

Avvalo odam bo‘lish kerak. (“Ot kishnagan oqshom”, 391-b.).

Kesim shunday gaplarda ish-harakatning bajarish majburiy, zaruriy ekanligini ifodalashdan tashqari o‘ziga xos ma’no ottenkasiga ham ega bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Золотова Г.А. О характере нормы в синтаксисе. «Синтаксис и нормы» китоби. – М., 1974, 146-бет.

Ko‘makchili va kelishikli formadan to‘ldiruvchi va hollar sinonimik hosil qiladi. Nutqda bunday sinonimlar qator kelishi ham mumkin. Bu vaqtida nutq ta’sirchanligi, ekspressivlik kuchayadi.

So‘z birikmasi doirasida sinonimiya ko‘proq tobe bo‘lgan formalari asosida paydo bo‘ladi.

Tobe bo‘lagi turli kelishik formalari bilan ifodalangan so‘z birikmalari sinonimiya hosil qiladi. Tobe bo‘lagi bosh va tushum kelishiklari bilan ifodalangan so‘z birikmalari, tobe bo‘lagi tushum va jo‘nalish kelishiklari bilan ifodalangan so‘z birikmaliri, birinchi komponenti qaratqich va chiqish kelishiklari bialn ifodalangan so‘z birikmalari tobe bo‘lagi tushum va o‘rin-payt kelishiklari bilan ifodalangan so‘z birikmalari tobe bo‘lagi tushum va chiqish kelishiklari bilan ifodalangan so‘z birikmalari kelishikli va ko‘makchili konstruksiya hamda qaratuvchi va qralmish birikmasi sifatlovchi-sifatlanmish birikmasi bilan sinonimiya hosil qiladi.

Shaklan qaratuvchi-qaralmish konstruksiyasiga, mazmunan izohlovchi-izoholanmish konstruksiyasiga o‘xshab ketadigan konstruksiyalar degan so‘zi bilan hosil bo‘luvchi konstruksiyalarga sinonim bo‘ladi.

SHu tipdagi, lekin predmet kimningdir nomi bilan atalganligini ko‘rsatuvchi konstruksiyalarning ham sinonimlari bo‘ladi.

### **1.3. Gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari**

Gap bo‘laklari nutq uslublarida qo‘llanishiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu ko‘proq ularning ifodalanishi, formasi, qo‘llanishi ko‘rinadi.

Ega ko‘pincha kelishik olmoshining birinchi va ikkinchi shaxs formalari bilan ifodalanadi. Bunda logik urg‘u olgan bo‘lsa, nutqda doim saqlanadi:

Men bir umr g‘oya deb yashadim. (Bu.d, 156-b.).

Sen, Rahimjonov uka, qolgin, ish bor. (Bu.d, 173-b.).

Aktiv konstruksiyali gaplarda ega harakat sub’ektini ifodabaydi. Masalan, bo‘ri polvon hayit arafa kunlari onasini yo‘qlab bordi. (O.k.o, 66-b.). Ayollar

birin-ketin qishloqqa yo‘l oldi. (O.q.d, 113-b.). Botir firqa enkatsib qaradi. (Bu.d, 166-b.).

Kesim nutq uslublarida qo‘llanishiga ko‘ra ayrim xususiyatlarga ega. Badiiy uslub uchun ko‘proq fe’l-kesim xosir. Bu xos uning maqsad va vazifasi bilan izohlanadi: Chilla shovulladi. (O.q.d, 142-b.).

Men bechora ishni ostiga o‘lib, ketaman. (O.q.d, 142-b.).

Kesimning uchinchi shaxs formasidagi majhullik va o‘zlik nisbati formasidagi fe’llar bilan ifodalanishi nisbatan kam uchraydi.

Xalq yig‘ilsin. (Bu.d, 5-b.).

Sostavli fe’l-kesimlarning murakkab formasi badiiy uslubda ko‘p kuzatiladi: Bir chala yovvoyi kaptarlar cho‘qqilar uzra uchib yuribdi. (Bu.d, 177-b.).

Ayolimiz yig‘lamoqdan beri bo‘ldi. (O.q.d, 129-b.).

Bu uslub uchun fe’lning sifatdosh, ravishdosh formalari bilan ifodalangan ikkinchi darajali bo‘laklar xarakterlidir.

Tog‘ay Murod asarlarida ko‘pincha ega gap boshida, gap o‘rtasida keladi.

Otamiz meni jerkib-jerkib darvozada qoldiradi. Men devorga suyanib o‘tiraman. (O.q.d, 27-b.). Tush mahal bir momo eshak minib keladi. (O.q.d, 71-b.).

Eganing kesimdan keyin, gap oxirida kelish hollari uchraydi:

Qayoqqa ketdi ular. (Bu.d, 171-b.).

Kim asl ziyoli. (Bu.d, 129-b.).

Tog‘ay murod ijodiga xos xususiyat gapda ega va kesimning takror-takror qo‘llanishi bo‘lib, bu badiiy nutqqa xos emotSIONAL-ekspressivlik hosil qilgan.

Masalan, Umid-odam uchun misoli ufqi. Umid odamzot uchun odamzot ufqi. (Bu.d, 134-b.).

Botir firqa unsiz yig‘ladi. Og‘zi burnini kafti bilan artib-artib yig‘ladi. Kaftiga yo‘talib-yo‘talib yig‘ladi. Kaftiga o‘ksib-o‘ksib yig‘ladi. (Bu.d, 155-b.).

Ega quyidagicha ifodalanadi.

1) Ot bilan: Ona tag‘in yo‘lida davom etdi. (Bu.d, 9-b.).

2) olmosh bilan: Bu Amudaryo bo‘ldi. (Bu.d, 31-b.).

3) sonli birikma bilan: Oyning o‘n beshi qorong‘u o‘lsa, o‘n beshi yorug‘. (Bu.d, 114-b.).

4) son bilan: Birimiz ikki bo‘lmaydi. (Bu.d, 95-b.).

5) sifat bilan: Moskovdan kattalar borsa – zar chopon kiygizasan. (O.q.d, 243-b.).

Tog‘ay Murod ijodida kesim quyidagicha ifodalangan: Bo‘ri polvon hafsalasi pir bo‘ldi. (O.k.o, 46-b.).

1) sifat bilan: El yurt ko‘ngli nozik-da (O.k.o, 7-b.).

2) un: Bugun xolaamma Zulfiqor polvonnikiga sunnat to‘yiga, he-e-e-ey! CHo‘, jonivor. (O.k.o, 7-b.).

3) fe’l bilan: Amurboy, qo‘ylarni ushlab, og‘ilxonaga qamang! (O.k.o, 8-b.).

4) olmosh bilan: Otangizning boshlari yostiqqa tekkandan buyon kunimiz shu (O.k.o, 454-b.).

5) ot bilan: Issiq jon – eng shirin ne’matdir. (Bu.d, 152-b.).

6) ravish bilan: Qolaversa, o‘z joniga qasd qilishning yomon tomonlari ko‘p. (Bu.d, 152-b.).

7) harakat nomi bilan: Insonni yuvmasdan ko‘mish. (Bu.d, 152-b.).

8) bor, yo‘q so‘zlari bilan: U dunyoda quyosh yo‘q. U dunyoda suv yo‘q. U dunyoda non yo‘q. (Bu.d, 159-b.).

To‘g‘ri, lekin ... musulmonchilik, uvol-serob, degan gaplar bor. (Bu.d, 39-b.).

9) ravishdoshnig edi to‘liqsiz fe’li bilan kesim orqali:

Bobomiz bir kapa joyni kaftday pollab edi. tuprog‘ini kaftlarida ezib-ezib maydalab edi. Kepakday-kepakday muloyimlab edi. keapk tuproqqa don sepib tashlab edi. CHumchuq terib katmasin deya, kepak tuproq uzra un misol tuproq sepib-sepib qo‘yib edi. (O.q.d, 9-b.).

Tog‘ay Murod asarlarida predikativ birikmaning sostavli fe’l kesim turi keng qo‘llanadi: Xo‘jasoatliklar baqira ketdi. (O.k.o, 53-b.). Humor momo davraga javdirab qaradi (O.k.o, 357-b.). Kulbalarda bekasi bilan xo‘jası uzala tushib o‘lib yotadi. (Bu.d, 13-b.).

Shunga qaramay, fe'lning sostavli ot kesim turi ham uchraydi: G'o'zapoya uchi shoda-shoda ko'sak bo'ladi. (O.q.d, 53-b.). Kattalarga murojaat etdi. (Bu.d, 13-b.).

Gap tarkibida kerak, zarur, mumkin, lozim, shart so'zlari kam uchraydi: Ammo yashab qolish kerak. (O.q.d, 256-b.).

Bo'lmoq, qilmoq so'zlari ko'p ishlatiladi: Magnit xlorit ziyon berdimi xom ko'sak uchlari qizil bo'lib, qizil bo'lmaydi, sariq bo'lib sariq bo'lmaydi, Guloba – gulobi rang bo'ladi. (O.q.d, 194-b.).

SHaxs va sonda o'zaro moslashmagan ega va kesim uchraydi: Bo'ydoqlar davraga o'g'rincha qarab, qayliq tanladi. (O.k.o, 9-b.). Xuftonda ayollar davra qurib, gulxan yoqdi. (O.k.o, 8-b.).

Tog'ay Murod asarlarida ega va kesimning ifodalashda –da yuklamasini qo'llab ketish holati kuzatiladi. Bo'ri-da nasimniki-da shunday to'n kiyib edi. Nasim onasi-da Bo'riga shunday deya peshonasidan o'pib edi. (O.k.o, 23-b.). Otlar chopishini ko'rib, otlarga rahmim-da keldi, kulgim-da keldi. (O.k.o, 192-b.).

Tog'ay Murod asarlarida kesimning o'ziga xos semantik shaklga ega bo'lgan turi yaratilgan deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, Ijroqo'm binodan tashqariladi (O.k.o, 449-b.). Bekasi kadini ko'tarib hadahaladi. (O.k.o, 460-b.). Kolxoz idorasi oldida oyoq ildi (Bu.d, 5-6-b.). Suv o'qariqda sharbat bo'lib dalaladi. (O.q.d, 150-b.). Tong saharlab ko'chalayman. SHaxdam-shaxdam qadamlayman. (O.q.d, 45-b.).

Misollarda presonajning o'zi ishlagan joyi tili bilan so'zlatishi keismning o'ziga xos shakllarini hosil qilgan. Vositasiz to'ldiruvchining belgili-belgisiz qo'llanishi ham uslubiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Kelishiklarning ma'nolari ko'makchilarining ma'nolari va funksiyalari bilan munosabatda bo'lishi mumkin. Bu hol nutqda kelishikli va ko'pakchini konstruksiyalar sinonimiyasini yuzaga keltiradi.

Ayrim o'rnlarda jo'naliш kelishigi tomon ko'makchisi konstruksiya bilan sinonimiya hosil qiladi. Bunday konstruksiya tarkibida kelishik affaksi ham qo'llanishi mumkin.

Badiiy uslubda bo‘lgani kabi Tog‘ay Murod asralarida obxektlı birikma asosan konkret holda qo‘llangan. M: Ko‘zlarimni qo‘llari bilan yashirib turdi. (O.k.o, 9-b.). Oqpodsho bobomiz ketidan miltiq o‘qtalib-o‘qtalib boradi. (O.q.d, 21-b.). Sariq kiyimlik kishi shahodat barmohi bilan yandi. Arg‘amchida ilig‘liq yozmaga ishora etdi. (Bu.d, 164-b.).

Tog‘ay Murod asarlarida to‘ldiruvchili birikmani qo‘llashdagi o‘ziga xos xususiyat to‘ldiruvchi bilan ba’zan –da yuklamasi ishlatib eketish hollarining uchrashidir.

YUzlarim lov-lov yonadi – Ziyod uchun-da orlanaman, o‘zim uchun-da orlanaman (O.q.d, 72-b.). Iloyim, sizlarni-da to‘yga etkazsin, deya tilan tiladi. (O.k.o, 7-b.).

YAna bir xususiyat shundaki, ba’zan kesim oldida kelgan to‘ldiruvchi olishi zarur bo‘lgan jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qo‘llamay ham gap tuzilaveradi. M: Baxmalni tirr-tirr ikki bo‘ldim. (O.q.d, 127-b.).

Aniqlovchi-aniqlanmish birikmasi tojikcha izofali birikma bilan sinonimiya hosil qiladi.

Izofali birikma ko‘proq badiiy so‘zlashuv uslublari uchun xarakterlidir. Ayniqsa, eski uslubda yozilgan she’riy asarlarda, tarixiy mavzuga oid prozaik asarlarda izofali birikmalarga ko‘p murojaat qilinadi.

Tog‘ay Murod asarlarida aniqlovchi aniqlanmish birikmasida

1) aniqlovchining belgisiz qo‘llanishi uchraydi. M: Bola **onasi** boshini opichlab bordi. (Bu.d, 8-b.).

2) aniqlovch qaratqich emas tushum kelishigi qo‘shimchasini olib kelish hollari uchraydi. M, it bir nimani hidini oldi. (Bu.d, 9-b.). Ona bolasini ust-boshini qoqdi. (Bu.d, 11-b.).

Badiiy uslubning obrazliligiga sabab unda sifatlovchilarining ko‘p qo‘llanishidir. Ko‘pincha bir predmeti sifatdosh oborotlar, ega-kesim shaklidagi yoyiq aniqlovchilar hamda uyushgan va uyushmagan sifatlovchilar bilan aniqlanadi. Ba’zan sifatdosh oborotlar birdan ortiq kelishi ham mumkin.

Qaratuvchi – qaralmish konstruksiyasiinng badiiy o‘ziga xos, ya’ni qaratuvchining belgili-belgisiz qo‘llanishi e’tiborni tortadi.

Qaratuvchi-qaralmish konstruksiyalarida tejamkorlik qonuniyati asosida qaratuvchi qo‘llanmasli, qarashlilik ma’nosи faqat egalik formasidagi otlar bilan ifodalanishi mumkin.

Ma’noni kuchaytirish, aniqlik kiritish uchun izohlovchilardan foydalanilgan: Qodirqulni nevarasi, Xolmat malayni nevarasi, Eson xizmatkorni bolasi. Botir qo‘shchi tumandan aynib keldi. (Bu.d, 5-b.).

Tog‘ay Murod asarlarida atributiv birikmaning semantik jihatи asar mazmuniga bog‘liq holda reallashadi: bobomiz dalasi, ariq o‘ngi, ariq bo‘yi, bizbop tuproq, er nomi, jo‘ya olib ekilmish g‘o‘za, oftob tafti, dalalarim qishi, oqar suv kabi birikmalar “Otamdan qolgan dalalar” asari uchun xosdir. Boshqa asarlaridagi birikmalar esa o‘sha asarda ko‘tarilgan g‘oya va mazmun bilan uyg‘unlashadi.

Uning ijodida sifatlovchi aniqlovchi ham, qaratqichli aniqlovchi ham qo‘llangan. Faqat qaratqich aniqlovchi asosan belgisiz ishlatilgan.

M: Surnay navosi chiqayotgan, osmonga tutun o‘rnayotgan to‘yxona ostonasida oyoq ildim (O.k.o, 114-b.). O‘zimizning Qo‘qon xoni he yo‘q, be yo‘q shahar darvozasini ochib beribdi. Toshkan bilan Qo‘qon orasi ikki qosh oralig‘iday keladi. etib keladi-da. (O.q.d, 8-b.).

Oxirgi misollardagi o‘zimizning Qo‘qon xoni birikmasida o‘zimizning aniqlovchisi belgili qo‘llangan, bo‘lsa, shahar darvozasi, Toshkan bilan Qo‘qon orasi birikmalarida aniqlovchi belgisiz ishlatilgan.

Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan holli birikma boshqa yozuvchilar asarlaridagidan keskin farq qiladi.

Tog‘ay Murod asarlarida holli birikma muhim o‘rinni egallaydi: kalandimog‘-kalandimog‘ qadam bosmoq, kibor-kibor quloch otmoq, kerma qosh-kerma qosh bo‘lmoq, hadaqa-hadaqa kelmoq, hayrona-hayrona turmoq, hokimona-hokimona siyosat etmoq, o‘rmalab-o‘rmalab oqmoq, toy-toy yurmoq, tasbehday-tasbehday tizilmoq, gupillab-gupillab changimoq, kuyib-kuyib kul bo‘lmoq,

o'smoqchilab-o'smoqchilab qaramoq, qarashib-qarashib olmoq, alp-alp odim otmoq, chidab-chidab yashamoq, horib-horib jon taslim qilmoq kabi.

Tog'ay Murod ijodida uning asarlari tiliga xos xususiyat holni ifodalagan bo'lakning ba'zan kelishik qo'shimchasini olmay ishlatalishidir. M: Men bo'xchamni gursillatib er tashlayman. (O.q.d, 47-b.). Oymomo aya mozor sig'indi (O.k.o, 262-b.). SHunda Botir firqa boshliq faollar tuman yo'l oldi. (Bu.d, 13-b.).

O'zbek tilida ma'lmu bir fikr turli xil shakllarda tuzilgan gaplar orqali ifodalanishi mumkin xuddi shuningdek, bir gap qanday holatda va qanday vaziyatda qo'llanishiga ko'ra ham turli fikrlarni ifodalay oladi. Birinchi gaplarda sinonimiya hodisasi kuzatilsa, ikkinchi holatda gap omonimiyasi kuzatiladi.

Ma'lumki, har bir so'zning haqiqiy ma'nosi nutq jarayonida gap tarkiyuida aniq namoyon bo'ladi. SHuningdek, ayrim gaplar, intaktik qurilmalarning aossiy mazmuni ham ana shu tarzda ma'lum bir sintaktik qurshovda o'z ifodasini topadi. Masalan, u juda og'ir yigit gapidan anglashiladigan fikr ikki qurshovda ikki xil bo'lishi mumkin:

- a) U haqiqat ham, vazn jihatdan og'ir yigit (masalan, 120 kilogramm).
- b) U vazn jihatdan emas, xarakter jihatdan og'irdir.

Nutq ma'lumki, gaplardan tashkil topadi. Gaplarning qay darajada to'g'ri tuzilganligi nutqiy madaniyatning asosiy mezonidir. Biroq buning o'zi ham etarli emas. Nutq ifodali, ta'sircha, qisqa, lo'nda, mantiqli va aniq, shuningdek, jo'yali ham bo'lishi kerak. Bu narsalar esa gap tuzishda barcha vositalardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanishda talab etadi: ayrim gaplarni to'liq shaklda tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi: ba'zi gaplar bir bosh bo'lakli shaklda, ba'zilari ikki bosh bo'lakli shaklda, yana ba'zilari yoyiq yoki yig'iq shakllarda tuziladi: ayrim gaplarda uyushiq yoki ajratilgan bo'laklar turli ko'rinishlarda keng qo'llanilsa, ayrim gaplar uyushiq yoki ajratilgan bo'laklarsiz qo'llanishi mumkin; ba'zi gaplar bog'lovchili bo'lsa, ba'zilari bog'lovchilarsiz bo'ladi... .

O'zbek tilidagi gaplarda ma'lum bir vositani (so'z, bog'lovchi, qo'shimcha kabilar) almashtirish orqali shu gapning bir necha ko'rinishlari (variantlari) vujudga keladi va ularning har biri fikrni o'ziga xos tarzda ifodalaydi.

#### **1.4. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari**

Kuzatilgan maqsadga qarab nutq uslublarining barchasida gaplarning maqsadga ko‘ra turlaridan keng foydalaniladi.

Bularning har biri, nutq uslublarida qo‘llanishiga qarab, ayrim o‘ziga xos belgilariga ega bo‘ladi.

Darak gap.

Bunda hukm muhokama ifodalanadi. Biror voqeа-hodisa haqida xabar berish yoki predmetda belgining mavjudligini tasdiqlash yoki inkor qilish lozim topilsa darak gapga murojaat qilinadi:

Hech kim Seton Tomson bo‘lolmaydi. (Bu.d, 192-b).

Tarozi olib kelgani bozorga bordi. (Bu.d, 189-b).

Hech kim Seton Tomson bo‘lolmaydi. (Bu.d, 192-b). Bunda nutq ko‘proq monolog tarzida bo‘ladi. Dialogik nutqda ham ko‘pincha darak gaplardan foydalaniladi.

Darak gaplar, xabar bilan bir qatorda gumon, sevinch, achinish, g‘urur, orzu-istak kabi ma’nolarni ham ifodalaydi. Bunda kesim formasi muhim rol o‘ynaydi: Eshitdilarmi, otaxon. Hukumatimiz ko‘p tanti hukumat, qushlar to‘g‘risida ham g‘amxo‘rlik qilyapti, shunaqa. Rahmat, hukumat, rahmat. (Bu.d, 178-b).

Qanday ma’no ifodalanishi kesimning leksik ma’nosi va formasiga bog‘liq bo‘ladi.

Darak gaplarning kesimi ot yoki otlashgan so‘zlar bilan ifodalanganda, gap tasviriy xarakterda bo‘ladi. Bunda biror predmetning xarakteristikasi ifodalanadi.

Darak gaplar nutqda boshqa gap turlariga qaraganda ko‘p qo‘llanadi. Odatda butun bir matn darak gapdan tashkil topadi: O‘rolboy mehmonlardan qolgan konyakdan bir qadah ichdi. Barchinoya termuldi. Olis termuldi. Barchinoy ko‘zlarini olib qochdi. Qo‘llari uchrashib, bir soniyaga termulib qoldilar. O‘rolboyning qalbida ayoliga shunday iliq, ma’sum tuyg‘ular ko‘pirib toshdiki... Bu tuyg‘ular o‘sha sinfdoshining ko‘zları bilan uchrashganda... Ha, ha, o‘shanda shunday ko‘pirib toshgan edi. (Bu.d, 185-b).

Darak gaplar nutq uslublarining har bir turida qo'llanadi. Ilmiy, rasmiy uslubga oid matnlar darak gaplardan iborat bo'ladi. Badiiy va publitsistik, so'zlashuv uslublarda esa darak gaplardan kengroq foydalaniladi. Badiiy adabiyotda tabiat manzarasi, obrazlarning portreti, ularning holati, asosan darak gaplar orqali ifodalanadi. Drama asarlaridagi remarkalar, turli izohlar faqat darak gaplardan iborat bo'ladi.

Darak gap biror voqeа-hodisa haqidagi xabarni ifodalanganda, tinch ohang bilan talaffuz etiladi, ohang kesim tomon pasayib boradi.

Yo'q, ular Anhor bo'yida uchrashmadi. Uchrashuvda o'zini qilib aytish uchun kitoblardan she'rlar ko'chirib olmadi. O, men seni sevaman, sensiz yashay olmayman qabilidagi mavsumiy so'zlarni so'zlashmadi. Lablar topishganda qizning uzun tovoni erdan sal ko'tarilmadi. Yo'q yigit qizni bezorilardan qutqarib qolmadi. (Bu.d, 181-b).

So'roq gap. Bunda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan biror predmet, harakat-holat, belgi haqidagi so'roq ifodalanadi. So'roq gaplarda suhbatdosh so'zlovchining so'rog'iga javob berishga, unga o'z munosabatini bildirishga undalar: Leytenant Ismatov, ayting-chi, nega bu kishini urdingiz? (O.k.o, 144-b).

Bundan tashqari, so'roq gaplar so'roq yo'li bilan bildirilgan hayrat, taajjub, hayajon, gumon, buyruq kabi ma'nolarni ham ifodalashi mumkin: Urdim? Qachon urdim? (O.k.o, 314-b).

So'roq gaplar kutiladigan javobga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki gruppaga bo'linadi.

Birinchi gruppaga tasdiq yoki inkor talab qiladigan so'roq gaplar kiradi. Bunda so'roq gap so'roq olmoshlarisiz, intonatsiya yoki so'roq yuklamalari orqali hosil qilinadi, gap tarkibida so'rovchi uchun noma'lum bo'lgan narsa voqeа-hodisa nomi nomi uchraydi. Bunda so'roq gaplar ko'proq -mi yuklamasi yordamida hosil bo'ladi. Ermat polvon, .... SHukur polvon bilan olishasizmi? (O.k.o, 13-b).

O'zi Olloyor kim edi? Avliyo edimi? Tabib edimi? SHox edimi? (O.k.o, 259-b).

Ular badiiy, publitsistik, ilmiy, so‘zlashuv uslublariga oid adabiyotlarda keng qo‘llanadi.

-chi so‘roq yuklamasi yordamida tuzilgan so‘roq gaplar ham mavjud. Bu so‘roq gaplar so‘zlashuv nutqi uchun xarakterli bo‘lib, Tog‘ay Murod asarlarida uchraydi: Birodar siz o‘zingiz tag‘in bir oyna olib qarang. O‘zlarini-chi, o‘zlarini? (Bu.d, 197-b).

-a yuklamasi yordamida tuzilgan so‘roq gaplar ham mavjud: Mana shu men-a? dedi. (Bu.d, 6-b). Bunday so‘roq gaplar so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, to‘liq gaplarda ham to‘liqsiz gaplarda ham qo‘llanaveradi: Chindan-da, bosh-adoq oppoq kiyinish moda bo‘ldimikin-a? (Bu.d, 73-b).

Men-a. seni-ya? (O.k.o, 145-b).

**Nahotki** yuklamasi taajjub ifodalagan so‘roq gaplar tarkibida keladi. Bunday gaplar ko‘proq badiiy, publitsistik, so‘zlashuv uslublarida qo‘llanadi.

Badiiy adabiyotda nutq ta’sirchanligini oshirish uchun so‘zlovchining o‘ziga o‘zi savol berishi usulidan keng foydalilaniladi:

So‘roq gaplarning ikkinchi tipida so‘zlovchi uchun uni qiziqtirgan fikrning bo‘ladi. So‘zlovchi harakatni bajaruvchi shaxsni, belgisi, o‘rni, payti, sababi, maqsadini bilishni istaydi. Bu vaqtda so‘zlovchi uchun noma’lum bo‘lgan narsaning shapda atalmasdan unga ishora qilinadi, gap tarkibiga so‘roq olmoshlari kiritiladi.

Ba’zan so‘zlovchi o‘ziga noma’lum bo‘lgan ko‘p narsani bilishga intiladi. Bu vaqtda birin-ketin so‘roq berilaveradi, bu fikrning ta’sirchan bo‘lishi uchun xizmat qiladi.

So‘roq gaplar tarkibida ba’zan **qani** so‘roq olmoshi kirish vazifasida kelib, ta’kid uchun xizmat qiladi. Qani, tumandan gurung bering, qani. (Bu.d, 43-b).

So‘roq gaplar so‘zlovchining qanday javob berishiga qarab ham tuziladi.

1. So‘roq gaplarda so‘zlovchi javobning qanday bo‘lishini oldindan tasavvur qilolmaydi: Bizga qorovullikka o‘taman deb bormadingiz? dedi kotib (O.k.o, 306-b).

2. So‘roq gaplarda javobning ijobiy bo‘lishiga shubha bildiriladi: SHunaqa qildimi-a. (Bu.d, 43-b).

So‘roq gaplarning bu tipida ba’zan javob so‘zlovchining o‘zi tomonidan beriladi: Odamzot qachon jon beradi? Qachon ko‘z yumadi? Odamzot ayni kuch-quvvatga to‘lib jon bermaydi. Odamzot ayni pishib, etilib ko‘z yummaydi. Odamzot jisman ishlab bo‘lib jon beradi. Odamzot ruhan mehnat qilib bo‘lib ko‘z yumadi. Odamzot qalban ham, jisman horib-tolib jon taslim etadi. (Bu.d, 158-b).

Tog‘ay Murod asarlarida so‘roq gaplarning javobini so‘zlovchining o‘zi berish hollari uchraydi:

Savoli: Endigina nish urmish g‘o‘zani nimasi bo‘ladi?

Javobi: Birovgina yolg‘iz bargi bo‘ladi!

Savoli: Jala ana shu yolg‘iz bargni urib ketdi. Narasida go‘zani nimasi bo‘ladi?

Javobi: Ignaday tanasi bo‘ladi. (O.q.d, 94-b).

YOki so‘roq ohangidagi gaplar o‘z javobi bilan ishlataligancha.

Bobomizda nima bo‘ladi – ketmon bo‘ladi. Ketmon emas – bir baloi bad bo‘ladi. (O.q.d, 5-b).

Buyruq gap. Bunda tinglovchini biror ishni bajarish yoki bajarmaslikka undash, da’vat etishdan tashqari do‘q, qat’iy buyruq, iltimos, maslahat, yalinish, taklif kabilar ifoda qilinadi: Buzilsin! – deya buyurdi. Yangi turmush yonida eskilik sarqiti bo‘lishi mumkin emas!

Buzilsin! (Bu.d, 21-b).

O‘chir, bozori kasod! Sidirg‘a o‘tir, bozori kasod, sidirg‘a o‘tir. (Bu.d, 9-b). Non dema-ya, qirilib ketgur! – deya bolasi sonini o‘yib-o‘yib oldi. (Bu.d, 9-b). Buyruq gaplarning bo‘lishsiz formasi faqat –ma affiksi orqali shakllanadi: O‘-o‘, domla, bermang, haydang! – dedi (O.q.d, 58-b).

Buyruq gaplarda kesim tarkibida –gin (-gil) affiksi ham kelishi mumkin. Bu vaqtda buyruq, iltimos, so‘rash ottenkasiga ega bo‘ladi. Xo‘p xayr, yaxshi etib borgin... – dedi. (Bu.d, 175-b).

Buyruq gaplar ko‘pincha ikkinchi shaxsga qaratilgani uchun ham ularda undalma qo‘llashga zaruriyat qolmaydi. Lekin ish-harakatning kimga qaratilganligini konkretlashtirish maqsadida bunday gaplar tarkibida undalma qo‘llanishi ham mumkin: O‘-o‘, Egamov tur. (O.q.d, 52-b).

Buyruqqa taajjub ottenkasi berish uchun gap kesimi yuklama olib keladi:

Buyruq gaplar kesimi buyruq maylining I shaxs formasini bilan ifodalangan bo‘lsa, istak harakatni bajarishga xohish, ahd qilish, so‘zlovchining o‘zi ishtirotida ish-harakatni bajarishga undash kabilar ifodalanadi. Tog‘ay Murod asarlarida bu tip gaplarning kesimiga –in affiksining qo‘shiib kelish hollari uchraydi: Kunjara bersam, emasa nima qilayin? Zog‘ora non otliqqa yo‘q bo‘lsa, nima qilayin? (Bu.d, 12-b).

Buyruq gap kesimi inkor mayli bilan ifodalanishi mumkin. -chi yuklamasi buyruq mayli bilan ifodalanishi mumkin.

Buyruq gap kesimi harakat nomi kerak, zarur, lozim, darkor formasidagi konstruksiyalar bilan ifodalanganda ish-harakatni bajarish zaruriyligi yoki zarur emasligi anglashiladi: Buni tuman kattalari bilan maslahatlashib ko‘rish kerak (Bu.d, 15-b).

Undov gap. Undov gaplarda so‘zlovchining ichki his-hayajoni, tuyg‘usi yoki voqealikka bo‘lgan turli emotsiyalarni ifodalanadi. Bunda emotsiyonallik gapning asosiy mag‘zini tashkil qiladi: Men shoir! Eshitayapsizmi, shoir! Men – fazoga intilgan inson! Men ona tabiatni ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylaguvchi posbon. (O.k.o, 426-b).

Darak, so‘rov, buyruq gaplar ham his-hayajon bilan aytilib, undov gapga aylanishi mumkin. Bunda asosiy maqsad ma’lum fikrni ifoda qilish bo‘lib emotsiyani ifodalash qo‘shimcha vazifadir: Ordek olasan-a, orden olasan! – dedi Botir firqa. (Bu.d, 125-b). Men qaytib kelaman! (O.q.d, 262-b).

Undov gaplarda zavqlanish, shodlik, hayratlanish, taajjub, achinish, g‘azab, nafrat kabi ichki kechinmalar ifodalanadi. Umuman, undov gaplarning shakllanishidaolmoshlar, undov so‘zlar ishtirot etishi mumkin. Bulardan tashqari intonatsiya ham shu tip gaplarning shakllanishi juda muhim rol o‘ynaydi.

Tog‘ay Murod ijodida darak gaplarda his-hayajon kuchayib, undov gapga xos emotsiya ifodalanishi mumkinligi asarlarining estetik qiymatini oshirgan: Men bir umr g‘oya deb ezildim. G‘oya deb azob chekdim. G‘oya deb jon olib jon berdim! Boisi communist uchun g‘oya-birlamchidir, birlamchi! Mening jonio uncha-muncha jonlardan emas. Kimsan – Botir firqani joni. Ko‘chada qolgan jon yo‘q! (Bu.d, 156-b).

Undov gaplar faqat undov so‘zlarning o‘zidan tashkil topishi ham mumkin.

Butip gaplar diolog formasidagi nutqqa xos bo‘lib, bo‘laklarga ajralmaydigan nutqning ko‘rinishidir.

Undov gaplarda tartib muhim rol o‘ynaydi. Kesimning propozitiv holda kelishining o‘zi elefaza hosil qiladi.

Undov gap tarkibidagi emotsiya ifodalovchi bo‘lak kuchli ohang bilan aytildi.

Ma’lumki, undov gaplar badiiy nutq uchun xarakterlidir.ular kitobxonga estetik ta’sir o‘tkazishda yozuvchi qo‘lida kuchli qurol hisoblanadi: Er haydasang, kuz hayda, kuz haydasang, yuz hayda!

O‘ynab qo‘yay! Maqoldan-da o‘ynab qo‘yay, shu maqolni aytishni eldan-da o‘ynab qo‘yay. (O.q.d, 75-b).

Grammatikaga oid adabiyotlarda o‘zbek tilida so‘z tartibi, asosan erkin bo‘lishi, shu bilan birga ayrim bo‘laklarning muayyan o‘rinlarda kelishi qayd qilinadi.<sup>1</sup> Masalan, ega o‘ziga oid so‘zlar bilan gapning boshida, kesim o‘ziga oid so‘zlar bilan gapning oxirida keladi. Ikkinci darajali bo‘laklar-aniqlovchi odatda egadan oldin, to‘ldiruvchi va hol odatda kesimdan oldin keladi. Proza sintaksi ham shu tartibga bo‘ysungandir: Havo bilan er harorati o‘n daraja ostida chigit bo‘rtadi, ammo ko‘karmaydi. CHigit bo‘rtik-bo‘rtikligicha chirib tamom bo‘ladi. Harorat o‘n ikki – o‘n to‘rtida chigit eksa bo‘ladi. Ayni kunlar ana shunday kunlar bo‘ldi! (O.q.d, 81-b).

---

<sup>1</sup> Кўнғуров Р.К. ва б. Ўзбек тилининг функционал стиллари. – С.: СамДУ, 1984, 59-б.

Ammo mazmun va emotsiyallik talabi bilan prozaik nutqda ham inversiyaga yo‘l qo‘yiladi: Barcha uy-uyiga – kapa kuyiga deya – majlis tarqatdi raisimiz. (O.q.d, 122-b).

Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari – darak, so‘roq va buyruq gaplarning fuknsional omillarda ishlatilishi bir xil emas. Darak gaplarning ishlatilishi barcha stillarda aktiv. So‘roq va buyruq gaplarning ishlatilishi esa chegaralangan. Masalan, ilmiy nutqda bunday gaplarga faqat kitobxonning diqqatini tortish kerak bo‘lgan holatlardagina murojaat qilinadi. Badiiy nutq stilida bunday gaplar matn sintaksisining ajralmas qismini tashkil etadi.

Gap tuzilishi ham funksional stillarda turlicha. Rasmiy va ilmiy uslublarda ko‘proq qo‘shma gaplar ularning bog‘langan va bog‘lovchili bog‘langan turlari, so‘zlashuv stilida sodda gaplar, ayniqsa ularning to‘liqsiz formasi ishlatilishi xos bo‘lsa, publitsistik va badiiy nutq stilida gapning har ikki turi ararlash holda kelaveradi. Ammo badiiy uslubdagi matnning sintaktik strukturasi haqida gapirganda avtorning ijodiyligini ham tark, inkor etib bo‘lmaydi. CHunki har bir yozuvchining tasvirlayotgan voqeani tushunishi, tilga munosabati, tasvirlash metodi bo‘ladi. Ana shu ularning tildan foydalanishidagi uslubini belgilaydi. Tog‘ay Murodda: Otamiz qadamish cho‘p nihol bo‘ladi.

Otamiz qaramish daraxt shig‘il-shig‘il bo‘ladi.

Otamiz qirqmish gul shoda-shoda bo‘ladi. Ming qilsa-da, otasi farg‘onachi-da, farg‘onasi! – deydi el. (O.q.d, 26-b). Matn yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir.

Bir yozuvchi tomonidan yozilgan turli janrdagi asarlarning sintaktik strukturasi has bir-biridan farq qilishi mumkin.

Badiiy nutqning yana bir o‘ziga xos xususiyati uni ilmiy uslub bian qiyoslaganda ko‘rinadi. Ilmiy nutqda faqatgina muallif ishtirok etadi. Badiiy nutqning shakllanishida esa muallif bilan personajlar ham qatnashaveradi.

Demak, ilmiy nutqda faqat monologik nutq hukmron bo‘lsa, badiiy nutq uchun ham monologik ham diologik nutq xosdir.

- Bo‘ldi endi qaytib kelsin. Anovi Dehqonquli bezorijonimni chiqardi, - deya pichirlaydi onamiz.

- Bola – bola-da – deydi onamiz.

- Ayollar erkagingiz bosmachi bo‘lib ketibdi, shu chinmi, deydi.

- Dehqonqul! Bosmachi demanglar. Necha marta aytaman bosmachi demanglar deb. (O.q.d, 32-b).

Bu hol badiiy nutqni so‘zlashuv nutqi bilan yaqinlashtiradi.

Prozaik asarlarda bayon qilishning o‘ziga xos usullari bor. Asardagi voqeahodisalarga, personajlarga muallifning bevosita munosabatini bildirishda muallif nutqi asosiy vosita sanalsa-da, personaj nutqi ham muallif nutqi uchun yaqin ko‘makdoshdir. Personajning kimligini, ma’naviy qiyofasini, dunyoqarashini muallif aytmasa ham uning tilidagini anglab olish obrazni birmuncha ob’ektiv tushunishga imkon beradi.

Prozaik nutq ham, poetik nutq ham bab-baravar emotSIONAL nutq sanalsa ham, she’riy nutq tabiat emotsionallik yuqori darajada bo‘lishini talab qiladi.

Badiiy nutqda emotsionallikni berishda takrorning ahamiyati juda katta:

Dalalarim bilan xayr-xo‘shlashib olayin, endi.

Dalalarim bobolarim achchiq-achchiq ko‘z yoshlaridan dala bo‘ldi,

Dalalarim otalarim sho‘rpeshona terlaridan dala bo‘ldi.

Dalalarim ayollarim gulday xazon umridan dala bo‘ldi.

Dalalarim – bobolarim sho‘r-sho‘r peshonasi.

Dalalarim – ayollarim xazon-xazon umri. (O.q.d, 262-b).

Yoki:

Emish-emish – bir ajin bir qayg‘uni bildirar emish.

Emish-emish – bir ajin bir dardni bildirar emish.

Emish-emish – bir ajin bir armonni bildirar emish. (O.q.d, 121-b).

Keltirilgan misollarda dalalar, emish so‘zlarining takrorlanish ta’sirchanlikni yuzga keltirgan.

So‘zlovchi nutq tuzish jarayonida uning namunali bo‘lishini ko‘zda tutgan holda mavjud vositalar hamda gap yoki so‘z birikmasi qoliplaridan eng maqbulini,

maqsadga muvofig‘ini tanlashga harakat qiladi. Demak, madaniy nutq, to‘g‘rilikdan tashqari, ta’sirchanlikni ham nazarda tutadi va shuni ta’minlash maqsadida til birliklarini tanlashni taqozo etadi. Har bir nutq ko‘rinishi uchun o‘ziga xos tanlash imkoniyatlari mavjud.

O‘zbek tilida gap qurilishi boy stilistik imkoniyatlarga ega.<sup>1</sup>

1. Ikki sostavli va bir sostavli gaplar sinonimiyasi mavjud.

Bunday gaplarda bir xil tipik mazmun ifodalanadi. Ularning gap strukturasi ikki xil: biri ikki sostavli, ikkinchisi bir sostavli gap bo‘lishi mumkin.

2. Bir sostavli gaplar sinonimiyasi kuzatilsa, birinchi gap ham, ikkinchi gap ham bir sostavli gap bo‘ladi. Bularning umumiy tomoni va mazmundagi farqi aniqlanadi.

3. Deyarli barcha ritorik so‘roq gaplar o‘z sinonimiga ega bo‘ladi. Lekin ularning bari ritorik so‘roq gap bo‘lsa, ikkinchisi darak gap bo‘lishi mumkin.

Emotsional-ekspressivlik ularning birida kuchli bo‘ladi, shubhasiz bunday gap ko‘proq so‘zlashuv, badiiy, publitsistik uslubga xos bo‘lsa, ikkinchi gap esa uslubning barcha turlarida qo‘llanaveradi. Egasi tanimaydigan bir sostavli gaplar shu tipdagи so‘roq gaplar bilan sinonimiya hosil qiladi.

4. Aktiv va passiv konstruksiyali gaplar sinonimiyasi. Bunda bir xil tipik mazmun aktiv va passiv konstruksiyali gaplar orqali ifodalanadi. Har ikki xil misolda bir xil tipik mazmun ifodalanadi. Lekin birinchisi passiv, ikkinchisi – aktiv konstruksiyali gap bo‘ladi. Bir gapda esa harakatni o‘ziga qabul qilgan ob’ektni ikkinchi gapda esa harakatni bajaruvchi shaxsni ifodalaydi.

5. Tasdiq va inkor formasidagi gaplar sinonimiyasida ikki gapda ham tipik mazmun ifoda etiladi. Lekin gaplarning biri inkor formasida ikkinchisi esa tasdiq formada kelishi ularning qay birida emotsional-ekspressivlik kuchli bo‘lsa so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lishiga sabab keladi.

Bunday gaplar ilmiy-rasmiy – ish uslublariga oid adabiyotlarda uchramaydi.

---

<sup>1</sup> Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўзбекистон, 1983, 150-б.

## **II BOB. BIR SOSTAVLI GAPLAR. UYUSHIQ BO'LAKLAR.**

### **UNDALMA.**

#### **2.1. Bir sostavli gaplar**

Bir sostavli gaplarning grammatik asosi ega yoki kesimdan iborat bo'ladi. Bir sostavli gaplar struktura asosining tabiatiga ko'ra egasiz va kesimsiz gaplardan iborat bo'ladi.

Egasiz gaplarning struktura asosi kesim bo'lib, uning tabiatni ikki xil: ayrim gaplarning kesimidan uning egasini topish mumkin: kesim eganing so'rog'ini qabul qiladi. Ba'zilarida esa egani topib bo'lmaydi; kesim eganing so'rog'ini qabul qilmaydi.

Egasiz gaplar kesim tabiatiga ko'ra egasi topiladigan va egasi topilmaydigan gaplarga bo'linadi.

Egasi topiladigan gaplarda ish-harakatni bajaruvchi shaxs aniq, noaniq, umumlashgan bo'ladi. SHunga ko'ra bu tip gaplar shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplarga bo'linadi.

SHaxsi aniq gap. Bunda gapning egasi bo'lmaydi. Uning strukturi asosi kesimdan iborat bo'ladi. Kesim fe'lning har uchala shaxs formasi bilan ifodalanadi. Gapning kesimiga qarab harakat qaysi shaxs tomonidan bajarilayotganini aniq bilishi mumkin: Ko'p og'zingni ochma (O.q.d, 236-b). Atgan-boylaganlaringizni chiqara bering, dedi raisimiz (O.q.d, 122-b). Kim bilan kurashadi. (Bu.d, 93-b). El-yurt xizmatiga yaramay qoldim. (Bu.d, 157-b). Endi, fanodan baqoga rixlat etamiz. (Bu.d, 157-b).

Bir sostavli gaplar ichida bunday gaplar nutqda eng ko'p qo'llanadi. Kelishik olmoshlari bilan ifodalangan eganing qo'llanmasligi badiiy uslub uchun xarakterli. SHaxsi aniq gaplarda fikrning yo'nalishi markazi kesimga ko'chiriladi: Odamni ko'p mayna etmasin. (O.q.d, 188-b).

Shaxsi aniq gaplar kesimning III shaxs formasi ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanib, II shaxsga qaratilgan bo'ladi. Bu diolog formasidagi nutqqagini xosdir.

Shaxsi aniq gapning kesimi fe'lning I shaxs formasi bilan ifodalanganda, II shaxsga qaratilgan buyruq, iltimos, maslahat ottenkalarini ifodalaydi. Ba'zan I

shaxsning ko‘plik formasi birlik ma’nosи uchun ham qo‘llanadi. Bunday vaqtida gap hurmat, kesatish, kamtarlik ottenkalariga ega bo‘ladi. Ba’zan shaxsi aniq gaplar diolog formasidagi nutqda ketma-ket keladi.

Birdan ortiq shaxsi aniq gaplar logik va intonatsional jihatdan birikib, qo‘shma gap hosil qilishi mumkin. Bunday qo‘shma gaplar murakkab fikrni ixcham formada ifodalash uchun xizmat qiladi.

Shaxsi noaniq gap. Bunday gaplarning kesimi fe’lning III shaxs noaniq formasi bilan ifodalanadi. Lekin kesimdan ish-harakatni bajaruvchi shaxsni aniqlab bo‘lmaydi. Bunda esa, A.M.Peshkovskiy aytganidek, nutqdan ma’lum maqsadda chetlashtiriladi, bajaruvchi shaxs ma’lum maqsadda noma’lum, noaniq bo‘ladi.<sup>1</sup> Tagi ko‘rmaganga gilam bitmasin (Bu.d, 5-b).

Shaxsi noaniq gapning kesimi ko‘proq III shaxsdagi noma’lum shaxsning ish-harakatini ifodalaydi. Bunga bosh bo‘lakning III shaxs bilan munosabatga kirishuvi tufayli erishiladi. Bu asosan badiiy uslubda kuchli uslubiy vositadir: Og‘zing to‘la qon bo‘lsa ham, dushmaning oldida tupurma, deydilar. (Bu.d, 15-b).

Shaxsi noaniq gaplarda eganing qo‘llanmasligi qo‘yidagi holatlarda yuz beradi.

1. Bajaruvchi shaxs so‘zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham noma’lum bo‘ladi: Otning o‘limi – itning bayrami deydilar. (Bu.d, 93-b).

2. Harakatni bajaruvchi shaxs so‘zlovchi uchun ma’lum bo‘ladi, lekin u nutqda qo‘llanmaydi: so‘zlovchining ham tinglovchining ham diqqat markazi harakatga qaratiladi: Qara, ketibdilar (O.k.o, 353-b).

3. Harakatni bajaruvchi shaxsni atash mo‘ljallanmaydi. Asosiy diqqat harakatga jalb qilinishidan tashqari, so‘zlovchi biror sababga ko‘ra uni ifoda qilishni noqulay deb biladi.

4. Harakatni bajaruvchi shaxs kontekstdan bilinib turadi. SHuning uchun ham u nutqda qo‘llanmaydi: SHu sababdan ham qabrlar boshiga g‘ishtin binolar qurish, beton ohangjomalar o‘rnatish, suratlar o‘yib solishni aslo buyurmaganlar. (Bu.d, 139-b).

---

<sup>1</sup> Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. –М.: 1986, 371-с.

5. Harakatni bajaruvchi shaxslarni bajaruvchi so‘zlovchi aniq ko‘rsata olmaydi.

6. Bajaruvchi so‘zlovchi shaxsning o‘zi bo‘lishi mumkin. Lekin tinglovchi shaxsning diqqatini bunga jalg qilish talab etilmaydi. Bu vaqtida bajaruvchi shaxs noma’lum ko‘pchilik bilan qo‘shilib ketadi.

Shaxsni noaniq gaplar rasmiy, ilmiy uslublarda qo‘llanmaydi.

Shaxsi noaniq gaplar T.Murod asarlarida ishlatiladi: Otangni ko‘rdim, ahmadi forig‘, jangni ko‘rdim, tovoni yoriq, - deydilar. (Bu.d, 7-b). Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq, deydilar. (Bu.d, 63-b).

Shaxsi umumlashgan gaplar semantik jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi.

1. Ish-harakat, umuman, barchaga qaratiladi. Bu ko‘proq chaqiriq, undash xarakterida bo‘ladi: CHidab-chidab yasha, oxirigacha chida, xudo bergen kungacha chida. (Bu.d, 159-b).

2. Xalqning donoligi, an’anasi, uzoq asrlik hayotiy tajribalari, umumiyl hodisalar, umumlashgan mulohazalar ifodalanadi. Bular umumga qaratiladi.

Konkret o‘rin yoki vaqt bilan bog‘lanmaydi. SHuning uchun ham bu tip gaplar ko‘pincha maqol xarakterida bo‘ladi: O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir. (O.k.o, 270-b).

Bu tip gaplarda kirish va kiritma konstruksiyalar, modal so‘z va yuklamalar deyarli qo‘llanmaydi: Nasib etsa, kelar SHomu, Iroqdan, nasib bitsa, ketar qoshu qabogdan. (O.k.o, 167-b).

Egasi topilmaydigan gap.

Bu tip gaplarda kesim orqali gapning egasini topib bo‘lmaydi. Lekin harakat sub’ekti biror shaxsga bog‘lanmagan holda mavjud bo‘ladi: Boisi samboda himoya o‘rgatiladi. (O.k.o, 78-b). CHinorni beliga tross solib, anavi samosval bilan tortish kerak, - deydi Botir firqa (Bu.d, 163-b). Jamiki otlar go‘shtga topshirilar emish. (O.k.o, 136-b).

Egasi topilmaydigan gaplarda gapning kesimi grammatik shaxsni ko‘rsatadi, lekin shaxs yoki predmetni ko‘rsatmaydi. U bir voqe-a-hodisa haqida tasdiq yoki

inkor, so‘roq ifoda qiladi, xolos. Bunday gaplarning bosh bo‘lagi ko‘pincha sostavli yoki murakkab formada bo‘lib, doimo III shaxsning birlik formasida keladi.

Egasi topilmaydigan gaplarning semantik-stistik belgilari quyidagicha: 1) harakatning bajarilishiga yo‘l qo‘yilish – qo‘yilmasligi ifodalanadi, bunda ega tushunchasi bajaruvchi shaxs tushunchasiga mos keladi. Lekin u qo‘llanmaydi. Harakatni bajarish uchun yo‘l qo‘yish-qo‘ymasligi kesimdan anglashiladi.

Egasi topilmaydigan gaplarning bu nutqda ko‘pincha ritorik so‘roq gap shaklida bo‘ladi.

Egasi topilmaydigan gaplar nutqda ba’zan to‘liqsiz gap shaklida ham qo‘llanadi.

2) kishi istagi, irodasiga bog‘liq bo‘limgan harakat yoki holatni ifoda qiladi; Ammo – lekin muslima bo‘lish uchun xudoning kimligini bilish kerak. Buning uchun avvalo Qur’onni o‘qish kerak. Hadislarni o‘qish kerak. (Bu.d, 80-b).

3) Ish-harakat yoki holatning bajarilishi mumkin yoki mumkin emasligi ifoda qilinadi: Buni tuman kattalari bilan bir maslahatlashib ko‘rish kerak (Bu.d, 15-b).

4) Ish-harakat yoki holatni bajarish zarur-zarur emasligi ifodalanadi. Bosh bo‘lak harakat nomi va kerak, zarur, lozim, darkor, hojat, ma’qul, shart kabi so‘zli konstruksiyalar bilan ifodalanadi.

Nominativ gap.

Bu kesimsiz gaplarning asosiy ko‘rinishidir. Bunda voqeа-hodisalarning nomi atilib, uning mavjudligi tasdiqlanadi: Yigirma tonna oppoq – oppoq paxta (O.q.d, 191-b).

Nominativ gap badiiy uslubda kuchli stilistik vositadir. YOzuvchi predmet, voqeа-hodisalarning nomini atab ularning mavjudligini tasdiqlash orqali kitobxonni voqeа rivoji sharoitiga olib kiradi. Tabiat manzarasi tasvirini berishda, obrazlar portretini chizishda, voqeani lo‘nda qilib ifodalashda nominativ gaplar muhim uslubiy vosita bo‘lib xizmat qiladi: YOlg‘izoyoq yo‘l (O.k.o, 23-b). Pahlavon Doho (O.k.o, 367-b).

Nominativ gap grammatik qurilishlarda bo‘lganligi uchun ham so‘z ustalari bu tip gaplarni ko‘proq qo‘llaydilar. Bu tip gaplar syujetning tez rivojlanishiga imkon beradi. Ayniqsa, nutq boshida qo‘llangan nominativ gaplar ko‘proq shu vazifani bajaradi:

Subhidam! Oppoq sochlari o‘ziga yarashgan munis onaxon yo‘l bo‘ylab kelmoqda. Bo‘yniga etak bog‘lab olgan. Engashib, tuproqdan bir nimalarni oladi, puf-puflab, xas-cho‘plardan, chang-g‘uborlardan tozalaydi. So‘ng, onajonlarga xos bir mehribonlik ila etagina avaylabgina soladi. (O.q.d, 205-b).

Ba’zan nominativ gaplar matn oxirida keladi. Bunda u oldingi gap bilan semantik munosabatda bo‘lib, yakun, xulosa ifodalaydi.

Nominativ gap ba’zan oldinga fikr bilan keyingi fikrni bog‘lash uchun xizmat qiladi: Tabassum! Uning oppoq yuzlarida ma’yus tabassum... (Bu.d, 180-b).

Nominativ gap predmet, voqeа-hodisalarning mavjudligini, uning boshqa voqeа-hodisalarning bilan aloqada ekanligini ham ta’kidlaydi: Ufqlarga tutash cho‘l. Sap-sariq cho‘l. Biyday cho‘l. Ana shu sap-sariq cho‘l qo‘ynida gimm yangradi. (Bu.d, 33-b).

Nominativ gaplarda ifodalanadigan emotisionallik, xursandlik, shodlik, qayg‘u, ajiblanish va boshqalarning o‘zi mana shu aloqaning mayjudligini ko‘rsatadi: Buyuk ipak yo‘li! (Bu.d, 168-b).

Nominativ gaplar murakkab qo‘shma gap shaklida kelib, peyzaj kartinalarining umumiylashtirishini ifoda qiladi.

Nominativ gapning qo‘llanishi ko‘pincha kishining holatiga bog‘liq bo‘ladi. Kishi hayajonlanganda ko‘proq fikrni qisqa ifodalaydi. Nominativ gaplar fikrni qisqa ifodalash, joy yoki vaqtini tejash maqsadida ham keng qo‘llanadi: Oqshom vaqt (O.k.o, 285-b).

## **2.2. Uyushiq bo‘laklar**

Uyushiq bo‘laklar uslubiy jihatdan tasviriy vositalar guruhiga kiradi. Bunday bo‘laklar yordamida umumiy tasvirlarning qismlari, harakat rivoji tasvirlanadi, kuchli ekspressivlik ifoda etuvchi epitetlar qatori hosil qilinadi:

Bobomiz ariq labida muztar bo‘lib o‘tiradi, betlarini changallab-changallab o‘tiradi. (O.q.d, 10-b).

Ko‘rinadiki, Tog‘ay Murod asarlarida o‘ziga xos uyushtirish usuli mavjud.

Kesimlarning uyushib kelishi nutqning dinamikligi haqida tasavvur beradi.

Uyushiq bo‘laklar ma’noni xizmat qilishi uchun ham xizmat qiladi. Bu ko‘proq hollar, sifatlovchilar uyushib kelganda yuz beradi.

Uyushiq sifatlovchilar nutqning ekspressivligi uchun xizmat qiladi: Boshlarida ottuyoq ro‘mol, shoyi ro‘mol, bilxi ro‘mol, kulmi ro‘mol, shotut ro‘mol, sim ro‘mol, harir ro‘mollar havolandi. Bodomcha, iroqi do‘ppilar, chorgul baxmaltepa do‘ppilar g‘uj-g‘uj bo‘ldi. (O.k.o, 231-b).

Uyushiq bo‘laklar sanoq ifoda qiladi. Sanoqning tugallanganligining oddiy logik formasi uyushiq bo‘laklarning oxirgi juft bo‘lagi orasida va bog‘loqchisining qo‘llanishidir: Elimiz fasllarni matoga ko‘chirdi: Hamisha Bahor, Bog‘u bo‘ston, Rayhon, gul va navro‘z, Gulnamozshom, Bargikaram... (O.k.o, 231-b).

Mana shu vazifada ham, bilan so‘zları ham keladi. Bu vaqt bu so‘zlar takrorlanmasdan oxiri uyushiq bo‘lak tarkibida keladi. Tog‘ay Murod asarlarida ham bog‘lovchisi uyushgan bo‘lakli gap ichida uyushgan bo‘laklar bilan birgalikda takror qo‘llanadi: Ko‘zlarini ... ham qo‘rquv, ham shijkeot bilan yumdi (Bu.d, 18-b).

Uyushiq bo‘laklar ba’zan sinonimik qator hosil qilishi mumkin. Bunday sinonimlar bir predmet, hodisa yoki belgini har tomonlama xarakterlaydi. Bu ayniqsa badiiy uslubda ko‘p uchraydi.

Uslub uchun uyushiq bo‘laklarning qaysi formada kelishi ham muhimdir. Odatta, uyushiq bo‘laklar ko‘makchili va kelishikli formada, birlik yoki ko‘plik formada, egalik va shaxs-son affikslarini olgan holatda, uyushiq bo‘lak kesim bo‘lganda to‘liq shakllangan yoki qisman shakllangan holda qo‘llanadi. Bunda ikki

holat ko‘zga tashlanadi: uyushiq bo‘laklarning oxirgisi tarkibida kelgan kelishik affiksi, ko‘makchi, ko‘plik formasi, egalik va shaxs-son affikslari, sostavli kesimning ikkinchi komponenti, uyushiq bo‘laklarning hosilasi uchun umumiy bo‘ladi. Bunday formantlar, ko‘makchilar, ko‘makchi yoki to‘liqsiz fe’llar uyushiq bo‘laklarning har biriga alohida-alohida qo‘silishi yoki ular bilan alohida-alohida kelishi mumkin. Bu nutqning logik – grammatik stilistik xususiyatlari bilan izohlanadi.

Uyushiq bo‘laklar ifodalagan tushunchalar alohida ta’kidlanganda morfologik forment va ko‘makchilar uyushiq bo‘laklarning har biriga qo‘silib keladi. Bu ko‘proq ilmiy-rasmiy uslubga xos bo‘lsa-da so‘zlashuv, publitsistik va badiiy uslubda ham kuzatiladi.

Uyushiq bo‘laklar o‘ziga oid so‘zlar bilan ortiq darajada kengayib kelsa, ularning har biri grammatik formant olishi, ko‘makchi bilan kelishi mumkin. Tog‘ay Murod asarlarida uyushiq bo‘laklar undov gaplar tarkibida ko‘p ishlataladi: Farzand – ayol baxti bo‘ladi, shon-sharafi bo‘ladi, yuz-xotiri bo‘ladi! (O.k.o, 346-b).

Uyushiq bo‘laklarning har biri yoki oxirgisining grammatik formant omili, ko‘makchi bilan kelishi ularni biriktirib kelgan bog‘lovchilarning tabiatiga ham bog‘liq. Masalan, uyushiq bo‘laklar takrorlanuvchi bog‘lovchilar bilan birikib kelganda, uyushiq bo‘laklarning har biri grammatik formant olishi yoki ko‘makchi bilan kelishi mumkin. Bilan yordamchisi bilan birikkanda esa faqat oxirgi uyushiq bo‘lak grammatik formant oladi, ko‘makchi bilan keladi.

Uyushiq bo‘laklarning grammatik formant olishi yoki olmasligi, ko‘makchi so‘zlar bilan kelishi yoki kelmasligi uyushiq bo‘laklarning miqdori, bog‘lovchilarning mavjud yoki mavjud emasligi, uyushiq bo‘laklarning semantik tomondan uzoq-yaqinligi, biriktiruvchi pauza kabi holatlarga bog‘liq. Bizningcha, yozuvchi uslubiga bog‘liq: Hovlida xodimlar bilan xandaq qazidi. Xodimlar bilan turli-tuman nihol: O‘rik ekdi, atirgul ekdi. Deraza ostida olma ekdi. Bo‘sag‘a oldida namozshomgul ekdi. (Bu.d, 25-b).

Keltirilgan misollarda nihol umumlashtiruvchi so‘z bo‘lib, o‘rik, olma, gilos, atirgul, namozshomgul so‘zлari uyushib kelgan. YOki: Atlasda o‘ziga loyiq rangi bo‘ladi, rangiga loyiq nomi bo‘ladi: Sakkiztepkilik, Marg‘ilon xonatasi, Samarqand oqshomi, Marg‘ilon mash’ali, Farg‘ona yo‘llari, Layli, Guli, SHirin, mahliqo, SHotikapalak, SHodiqara, Qo‘chqorshoxi, Tiri kamon, Oltin kalit (O.k.o, 231-b).

Gap bo‘laklari ko‘pincha bog‘lovchilarsiz biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi yordamida uyushib keladi.

Kyushiq bo‘laklarning yoyiq holda kelishi, ularning bog‘lovchilarsiz, biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi yordamida uyushadi.

Tog‘ay Murod asarlarida o‘ziga xos uyushish hodisasi bor, ya’ni uyushish jarayoni alohida gap tarzida ifodalanadi: Bir vaqtlar suqsurday-suqsurday qiz edi. Bir vaqtlar chikkabel-chikkabel qiz edi! (O.q.d, 95-b). Misollarda suqsurday-suqsurday, chikkabel-chikkabelni uyushiq bo‘lak deyish mumkin, lekin u bir gap tarkibida emas, ma’noni kuchaytirish uchun ko‘proq gapda takroriy ifodalangan. YOki shunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin: Tom bosh adog‘ilab qadamladi. Vazmin-vazmin qadamladi. Olislarga dono-dono bosib qadamladi. (Bu.d, 5-b). Bu misolda qadam bosim harakati qanday tarzda bajarilganini bildiruvchi bo‘laklar uyushgan. Ko‘rinadiki, bosh-adog‘ilab, vazmin-vazmin, dono-dono boqib qadamladi shakli Tog‘ay Murod asarlarida o‘zgacha shaklda berilgan. Bu yozuvchining o‘ziga xos uslubidir.

### **2.3. Undalma – uslubiy vosita sifatida**

Undalma, so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs, jonli va jonsiz predmetni ifodalashiga ko‘ra, kuchli stilistik vosita hisoblanadi. Undalmalar so‘zlovchining tinglovchiga munosabatini ifodalab, baho xarakteristikasi ottenkasi (ijobiy, salbiy, neytral, ko‘tarinki tantana kabilarga) ega bo‘ladi.

Undalma o‘zining leksik-grammatik tabiatini bilan, undoshdan tashqari bu vazifada kelgan shaxs, predmetlarni xarakterlaydi. Ularning ko‘pchiligi ekspressiv xarakterda bo‘lib, ko‘llanishiga ko‘ra turli xususiyatga egadir.

Undalmalar baho xarakteristikasi ottenkasini ifodalashga ko‘ra, ikki katta gruppaga ajratiladi:

1. Stilik neytral undalmalar: Bunday undalmalarda so‘zlovchining baho xarakteristikasi neytral bo‘ladi: Ahrab qo‘rboshi sen asl jigit ekansan, asl jigit! (O.q.d, 43-b). Monologik nutqda qo‘llangan undalmalar logik jihatdan ko‘pchilikka qaratilgan bo‘ladi: Barchalaringiz Ollohga tavba qilinglar, ey mo‘minlar. (Bu.d, 74-b).

2. Baho xarakteristikasini ifodalovchi undalmalar emotsional – ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lib, faqat nutq adresatini ifodalaydi, unga munosabat bildiradi va xarakterlaydi.

Bu hol quyidagi sabablar bilan bog‘liq:

1. Undalma o‘z leksik ma’nosiga ko‘ra baho ifodalaydi. Bu baho ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin: Yo‘q, mergan, ovora bo‘lmang, o‘tiring. (O.k.o, 50-b). Osmondan tush-a, nonko‘rlar, osmondan shaloplab tush-a, nonko‘rlar (Bu.d, 125-b).

2. Baho xarakteri, undalmaning obrazliligi u bilan birga kelgan so‘zlarga bog‘liq. Obrazli aniqlovchilar, izohlovchilar bilan kelgan undalmalar nutqni obrazli qiladi: Odamlar-u, odamlar, tog‘da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar! (Bu.d, 7-b). Ukkag‘ar Hotam polvon-e! Sizga o‘xshaganlarni manavi chinachog‘im bilan itqitaman, ha! (O.k.o, 12-b).

3. Baho ifodalashda intonatsiyaning roli katta. Undalmaning turli intonatsiya bilan ayttilishi uning turli ma’no ottenkalari ifoda qilishini ta’minlaydi.

Mazlumalar, jonlara jononalar,

Qizlaringizni o‘qiting onalar! (Bu.d, 30-b).

Ba’zan, undov so‘zlarning o‘zi undalma vazifasida keladi. Bu vaqtda so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxs matndan yoki vaziyatdan bilinib turadi: Ayo qaerdasan, - dedim. (O.q.d, 139-b).

Undalmaning takrorlanib kelishi baho xarakteristikasini kuchaytiradi. Hay otam, hay otam-a, hay otarginam-a! Haydaya! (O.k.o, 155-b).

Shunday, govmishim, shunday, sen odamzot rizq-ro‘zi uchun bino bo‘lding, nasibasi uchun bino bo‘lding, govmishim (O.k.o, 459-b).

4. Undalmalar gradatsiya uchun xizmat qiladi: Odamlar, uzoq-yaqindan kelgan aziz mehmonlar! Mana jamoa jam bo‘ldi. (O.k.o, 11-b).

Tog‘ay Murod asarlarida yana asli bir gap shaklida bo‘lgan konstruksiyalar ham undalma vazifasida keladi, deyish mumkin: O‘chir bozori kasod. O‘chir, zog‘ora non. (Bu.d, 9-b).

Tog‘ay Murod asarlarida undalmalar gapning boshida, o‘rtasida, oxirida ham qo‘llangan: Haloyiq! – dedi. Davrada halol olishib, elga tomosha ko‘rsataylik. (O.k.o, 13-b).

Menga qara, el chavandoz – dedi. SHu otni menga sotmaysanmi? Yigirma qo‘y beraman. Gapning erkagini ayt (O.k.o, 55-b).

Shukr, firqa bova, shukr. (Bu.d, 29-b).

### **III BOB. QO‘SHMA GAPLAR. KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA GAP.**

#### **3.1. Qo‘shma gaplar.**

Bog‘langan qo‘shma gaplarning bog‘lovchili turi bog‘lovchisiz turi bilan, ergashgan qo‘shma gaplarning yordamchili turi yordamchisiz turi bilan sinonimiya hosil qiladi.

Qo‘shma gaplarning bog‘lovchili yoki yordamchili turlari ko‘proq kitobiy nutq uchun, bog‘lovchisiz turlari so‘zlashuv nutqi uchun xarakterlidir.

Badiiy nutqda qo‘llanuvchi qo‘shma gaplarni kuzatganda A.Mamajonov bu nutq o‘zida fikr ifodalashning ikki uslubini mujassamlashtirganini ta’kidlaydi.

- a) poetik nutq uslubi,
- b) prozaik nutq uslubi.<sup>1</sup>

Poetik nutq uslubida musiqiylik kuchli bo‘ladi. Chunki ularda lirk kechinma, tantanavorlik, ko‘tarinkilik, muallifning turli his tuyg‘ularini birga qo‘shilgan holda ifoda etiladi. Bu holat qo‘shma gaplarga katta ehtiyoj tug‘diradi. Poetik nutqda qo‘llanuvchi qo‘shma gaplarda turli stilistik figuralar, jumladan takror ko‘rinishlari antiteza, struktural paralellizm, o‘xshatish, gradatsiya kabilardan keng foydalaniladi.

Prozaik nutq uslubida qo‘shma gaplar yaxlit badiiy asarning ma’lum o‘rinlarida uning zarur bo‘yog‘i sifatida xizmat qiladi.

Ayol zoti azzancha o‘ziga to‘q bo‘lsin, egan-ichgani oldida bo‘lsin, azzancha serurug‘ bo‘lsin, seravlod bo‘lsin, bari-bir o‘z oti bilan zaifa bo‘ladi. (O.k.o, 330-b).

Yuqorida keltirilgan badiiy nutq matni fikrni to‘liq ifodalashda asosiy vosita vazifasini bajargan.

Badiiy nutqda qo‘shma gaplarning deyarli hamma tipi paralel qo‘llanadi. Chunki qo‘shma gaplar shaxs yoki predmetning turli belgi-xususiyatlarini, zamon va makon bilan aloqador bo‘lgan holatlarni tasvirlash vositasi sifatida katta imkoniyatga ega. SHaxs yoki predmetga atroflichha xarakteristika berish, obraz

---

<sup>1</sup> Мамажонов А. Кўшма гап стилистикаси. – Т.: Фан, 1990, 49-б.

yaratish, tabiat tasvirini chizish singari badiiy nutqqa xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlarni reallashtirishda qo‘shma gaplardan va ularning murakkab ko‘rinishlaridan keng foydalaniladi. Qo‘shma gaplarning stilistik funksiyalari, ko‘pincha, badiiy nutq matnlarida namoyon bo‘ladi.

Qo‘shma gaplar badiiy nutqda asosan quyidagi stilistik vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi.

1. Shaxs xarakteristikasi yoki obraz tasviri vositasi sifatida.
2. Badiiy nutqda portret tasvirini ifodalovchi qo‘shma gaplar ham mavjud keng qo‘llanadi.
3. Predmet tasviri vositasi sifatida ishlataladi.
4. O‘rin-joy tasviri vositasi sifatida qo‘llanadi.
5. Payt tasviri vositasi sifatida qo‘llanadi.
6. Peyzaj tasviri vositasida keng foydalaniladi.
7. Qiyo slash vositasi sifatida qo‘llanganda qo‘shma gaplarning mazmun doirasi juda keng bo‘ladi, ular orqali shaxs yoki predmetning belgisi, harakati yoki holatini ajratib ko‘rsatish, farqini ochish, shu yo‘l bilan ularga baho berish kabi stilistik ottenkalar ifoda etiladi. Qiyo slash vositasi sifatida qo‘llanuvchi qo‘shma gaplarda chog‘ishtirish ob‘ekti mavjud bo‘ladi: Saraton bolalardan sariq bo‘ladi, bolalar saratonda sariq bo‘ladi. (O.q.d, 6-b). ... Boy bo‘lsangiz – samolyotda yurasiz, ... kambag‘al bo‘lsangiz – liqir-liqir poezdda yurasiz. (Bu.d, 88-b).

O‘zbek tilida qiyo slash munosabatini ifodalash imkoniyati sodda gaplarga qaraganda, qo‘shma gaplarda kengroq va qulayroqdir. SHuni ham aytish kerakki, qiyo slash vositasi sifatida qo‘llanuvchi qo‘shma gaplar ma’lum nutq stili bilan qat’iy chegaralanmaydi.

8. Badiiy adabiyotda fikrni obrazli, ta’sirchan ifodalash zaruriyati tug‘ilganda, ko‘pincha maqol tipida shakllangan qo‘shma gaplardan keng foydalaniladi: Oshingni esa-da mard esin, boshingni esa-da mard esin. (O.q.d, 43-b).

Ko‘rinadiki, badiiy nutq ko‘p qirrali imkoniyatlarga ega. Unda og‘zaki nutq elementlari bilan ongli ravishda qo‘shilib ketadi. SHuning uchun badiiy nutqda

qo‘llanuvchi qo‘shma gaplarning stilistik vazifasi rang-barang bo‘lib, ularda ekspressivlik nihoyatda kuchli bo‘ladi. SHuni ham alohida ta’kidlash lozimki, badiiy nutq uslubi inson amaliy faoliyati va hayotining barcha tomonlarini qamrab olishi, umumga taalluqligi, barchaga barobarligi bilan ajralib turadi va boshqa nutq stili bildirgan xususiyatlarning ham mavjud bo‘lishi kuzatiladi. Bunday nutq stilida qo‘shma gaplarning hamma turi paralel qo‘llanadi.

1) bog‘lovchisiz qo‘shma gap: Botir firqa minbar ko‘rdi – bunday minbar ko‘madi. (Bu.d, 70-b).

2) bog‘langan qo‘shma gap: Intellektuallar izg‘irin shamol nima ekanini yaxshi biladi, ammo shu shamolga bardosh berish qo‘lidan kelmaydi (Bu.d, 85-b).

3) ergashgan qo‘shma gap: Boshqa vaqtłari ana shunday qarab tursa, uloq men tarafga kelmaydi. (O.k.o, 179-b).

### **3.2. Bog‘lovchili va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.**

Bog‘lovchili va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar avvalo uslub talabi bilan qo‘llanadi.

Ayiruvchi bog‘lovchilar gap mazmunini yoki qo‘shimcha ma’noni tayin etishda muhim belgi sanaladi: ular birdan ortiq harakat-holatni saylab olish yoki hodisalarning navbatma-navbat bo‘layotganini ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi: Mana shu qabr toshlar tayyor marmarga shakl berilib qilinadimi yo biror-bir qolipga solib tayyorlanadimi? (Bu.d, 139-b).

Umumlashgan va qiyosiy munosabat ifodalovchi gaplarda nisbiy olmoshlar halqa vazifasini bajaradi, demak, bunday konstruksiyalar ham doimo bog‘lovchilar orqali shakllanadi.

Bo‘lishsizlik-inkor bildirgan gaplar ham bog‘lovchili qo‘llanadi. Bu vaqtda **na** bog‘lovchisi ham o‘z vazifasida, ham bog‘lovchi o‘rnida keladi: na asardagi odamda na kitobxonda otga nisbatan xayrixohlik, achinish sodir bo‘ldi. Chunki muallif otni hayvon, o‘z oti bilan hayvon degan nuqtai nazar bilan tasvirlanadi. (Bu.d, 185-b).

Hozirgi o‘zbek tili nutq stillarining barchasida, ayniqsa, badiiy uslubdag‘i asarlardagi komponentlari hatto, faqat, yolg‘iz, -gina yuklamalari; ya’ni, masalan, ayniqsa, shaxsan kabi kirish so‘zlar, deylik, demak, boshqacha aytganda, shunday qilib kabi fe’l-kirishlar, shu bilan birga, shunday qilib kabi birikmalar, emas to‘liqsiz fe’li va boshqalar yordamida bog‘langan qo‘shma gap tiplari ko‘p uchraydi: Momoqizning o‘g‘li xushsuvrat yigit bo‘pti... faqat burnining puchuqligi Momoqizga kelbat beradi. (O.k.o, 83-b). Masalan, magazinga kirasiz – qimmatbaho kiyim turadi. (Bu.d, 87-b).

Demak, qizini ishqiboz ekanini bilmaydi, ... qizidan xabari yo‘q. (Bu.d, 35-b). Bu vositalar asosan, uslubiy vazifa bajaradi, bular orqali shakllangan qo‘shma gaplar miqdor-qurilishi jihatidan bog‘lovchili qo‘shma gapning u yoki bu tipiga o‘xshasa ham mazmun hukm nuqtai nazaridan o‘ziga xos ayrim tomonlari bilan ajralib turadi. Bunday gaplarda ayni bir fikr ikki sodda gap orqali berilib, ikkinchi qism birinchi gapda berilgan fikrga aniqlik kiritadi, izohlaydi, u yoki bu belgini ta’kidlash, kuchaytirish maqsadida u gap alohida zarb aytildi fakt yoki hodisalar solishtiriladi, nihoyat badiiy va publisistik asarlarda fikr rivojlantiriladi.

Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar muhim grammatik va stilistik vazifa bajaradi. Ular yordamida sodda gaplar birikib, butun bir shaklga kiradi: Odamlar elkasiga chumchuq qo‘ysa bo‘ladi, ammo odamlar oralab yurib bo‘lmaydi. (Bu.d, 81-b).

Uslubiy tomondan esa turli ma’no hamda uslub bo‘yoqlarini berishda, sodda gaplarni chegaralashda, ularning o‘zaro munosabatini belgilashda, ayniqsa, ergash gapning nima maqsadda qo‘llanganligini ko‘rsatishda bog‘lovchilar o‘ziga xos o‘rinda turadi: Olomon juda osonlik bilan o‘ziga lider topadi, **chunki** lidersiz bir qadam bosolmaydi. (Bu.d, 90-b).

Bog‘lovchili qo‘shma gaplarda ifoda imkoniyatlari bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga nisbatan xiyla keng bo‘ladi. Ergashtiruvchi bog‘lovchi orqali hosil bo‘lgan qo‘shma gaplarda biror uslubiy ehtiyoj bilan ergash gapning o‘rinni o‘zgartirish mumkin. Ikkinchi bir holat: qo‘shma gap qismlarining o‘zaro

birikishida leksik-semantik talablar asos bo‘la oladi. Bosh gapning kesimi o‘timli fe’l bilan ifodalansa, albatta, to‘ldiruvchi ergash gap qo‘llanadi.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar uchun quyidagi gap tiplarini ham kiritish mumkin.

1. Bosh gap tarkibida qo‘pincha ko‘rsatish olmoshlari va ularning turli formalari bo‘ladi.

2. Qo‘shma gap qismlarida antonimlar qo‘llanib, ular yordamida gaplar mazmuni aniqlanadi.

3. Ayrim gaplarda bo‘laklar takrorlanishi mumkin.

4. Qo‘shma gapning birinchi qismi shunday mazmun ifodalab, shunday ohang bilan aytiladiki, undan keyin ikkinchi gap kerakligi aniq sezilib turadi.

Badiiy nutqda bir necha sodda gap vositasida biror shaxsga xarakteristika berilsa yoki tabiat manzarasi chizilsa, ortiqcha belgiga o‘rin qolmaydi. Agar ular orasida har safar biror bog‘lovchi qo‘llayversak, ifodaga ortiqcha yuk bo‘ladi: ayrim bog‘lovchi takrorlanib qolsa, fikr g‘alizlashadi. Ayrim gaplarga hatto majburan ham bog‘lovchi kiritib bo‘lmaydi.

Bog‘lovchisiz shakllangan konstruksiyalar mazmunan uzviy bog‘liq bo‘ladi, ular shunday tartibda joylashadiki, bir gap ikkinchisi uchun juda zarur elementga aylanadi, bir-birini talab qiladi.<sup>1</sup> Ular orasida ohang esa ifodaga tasviriylilik, obrazlilik kiritadi: Terimchilar tera beradi – terolmovchilar kuchanib yura beradi. (O.q.d, 58-b).

M.V. Lomonosov bog‘lovchilarni majoziy usulda mixga o‘xshatgan. Ikki taxtani biriktirib turgan mix qanchalik ko‘rinmasa buyumning yaxlit ekani, bir butunligi shunchalik ishonchli bo‘lgani kabi, ikki va undan ortiq sodda gap orasida bog‘lovchi bo‘lmasa, nutq parchasi shunchalik jips, mantiqan bir butun bo‘ladi.<sup>2</sup>

Umuman, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar bog‘lovchili qo‘shma gaplarga sinonim bo‘lib, uslub tomondan ikki xil qo‘llanadi.

---

<sup>1</sup> Абдураҳмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Т.: Фан. 1958. 235-б.

<sup>2</sup> М.В. Ломоносов. Риторика. III қисм, 5-боб, 325-б.

a) Bog‘langan qo‘shma gapga teng keladigan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning qismlari payt bildirsa, ular orasiga zarur topilsa biriktiruvchi bog‘lovchini, zidlik munosabati ifodalansa, ammo, lekin, biroq bog‘lovchilaridan birini qo‘yish mumkin: Botir firqa muzika og‘ushida yotdi-yotdi-ruhi orom oldi. – Botir firqa muzika og‘ushida yotdi-yotdi va ruhi orom oldi. (Bu.d, 143-b).

Bunday gaplar mazmunan bir-biriga teng bo‘lib, ifoda va uslub talabiga ko‘ra ozmi-ko‘pmi farq qilishi mumkin bo‘ladi.

B) bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning katta qismi ergash gapli qo‘shma gaplarga sinonim bo‘ladi. Bunday gaplarda mazmun yaxlitligi, fikriy butunlik ustun bo‘lgan uchun, ko‘p vaqt bog‘lovchi talab ham qilinmaydi. Badiiy nutqda bog‘lovchisiz shakllangan qo‘shma gaplar keng tarqalgan. Agar qiyoslash zarur bo‘lsa, mazmun talab etgan ergashtiruvchi bog‘lovchini qo‘yib, paralel konstruksiya hosil qilish mumkin: ... Odam bor – o‘lim bor. – Odam bo‘lsa, o‘lim bor. (Bu.d, 149-b).

O‘xshatish, qiyos, izohlash, sabab, shart, natija munosabatlarini ifodalovchi gaplarda bog‘lovchilarni ishlatmay, uning o‘rnida ohangdan foydalanish va ayni o‘sha mazmunni berish mumkin. Tabiiyki, bunday holda ham uslubiy jihatdan ma’lum darajada farq bo‘ladi.

Jumladan, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ayrim mazmuniy munosabatlar xiyla umumlashib ketadi. Masalan, men tashqarilab edim – bir qaldirg‘ochimiz boshim uzra chirq-chirq etib aylandi. (O.q.d, 83-b). Mening ayolim bor-u bir etak farzand tug‘ib berdi.

Tog‘ay Murod asarlari falsafiy xarakterga ega. SHuning uchun ham u qo‘llagan qo‘shma gaplarda shunchaki xabar, so‘roq, buyruq, his-hayajon turli shaklda bo‘libgina qolmay, o‘sha gap g‘oyasini, qahramonlarning xarakterlarini ochib berishda muhim bir qurol bo‘lib xizmat qiladi. YOzuvchi hatto hayvonga insonga xos sog‘inch tuyg‘usining mavjudligini ko‘rsatadi: ot avlod-ajdodlarini ko‘msab kelinadi. (O.k.o, 213-b). Bu bog‘lovchisiz qo‘shma gap orqali ifodalangan hayvondagi mehr-oqibat, ijobiy fazilatlardan insonlarni o‘rnak olishga chaqirganday bo‘ladi.

### **3.3. Bog‘lovchilarning uslubiy vazifasi**

Sabab, natija, holat, payt kabi ma’nolarni ifodalash uchun turli bog‘lovchilardan foydalaniladi: Soqoldor odam ancha-muncha xalqni o‘ziga ergashtiradi. Chunki soqol kishiga avliyonamolik baxsh etadi. (Bu.d, 69-b).

Bog‘lovchilar ko‘proq kitobiy uslubga xosdir.

Va bog‘lovchisi, asosan, ikki gap orasida kelib, xilma-xil ma’no ottenkalarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Poetik nutqda bu ma’nolarni aniq berish uchun **va** bog‘lovchisidan tashqari, turli ko‘makchi va yuklamalardan ham foydalaniladi.

Hamda, ham bog‘lochilari nisbatan kam qo‘llanadi. Lekin bu bog‘lovchilarning takroriy shaklidan ham foydalanish mumkin.

**Ham** bog‘lovchisi takror qo‘llanganda inkor ma’nosи berilsa, uning o‘rnida na bog‘lovchisidan foydalanish mumkin, bu vaqtida kuchaytirish va ta’kid ottenkalari ifodalanadi. Kesimlar bo‘limli formada qoladi.

Demak, na bog‘lovchisi bundan holda ham yuklama, ham bog‘lovchi vazifasini bajaradi:

Tog‘ay Murod asarlarida qo‘shma gaplarning va, ham, hamda bog‘lovchilari yordamida tuzilish hollari deyarli uchraymaydi. Uning nasriy asarlari she’riy nutqqa yaqin turgani bilan, undan-da silliqligi bilan izohlanadi.

Lekin, biroq, ammo bog‘lovchilari yordamida ko‘proq tazod hosil qilinadi.

Bu bog‘lovchilar o‘rnida faqat, yolg‘iz, -u (-yu), -da yuklamalari, emas, bo‘lsa, esa fe’llari, balki so‘zi kelib, xilma-xil ma’no bo‘yoqlari ifodalanadi: Mirzaxo‘jaboyni bevosa bitta kulcha olib borib bor, faqat birov bilmasin, zamon yomon (Bu.d, 12-b). -u (-yu), -da yuklamalari biriktiruv bog‘lovchilariga sinonim bo‘la oladi. Bu vaqtida qiyoslash, zidlik, tenglik, sabab, natija kabi ma’nolar anglashiladi: Men nima g‘amda-yu, chol nima g‘amda. (O.k.o, 155-b). Birodar, sochim bo‘lmasa-da tarog‘im tillordan. (O.k.o, 161-b).

Demak, zidlov, biriktiruv, qiyos, inkor bog‘lovchilari orasida uslubiy vazifadoshlik bor. SHuning uchun hatto zidlik bildirgan gaplarda ba’zan **va** bog‘lovchisi ham qo‘llanishi mumkin.

Bunday holda qo‘shma gap qismlari orasidagi mazmuniy munosabatni aniqlashda kontekst etakchi rol o‘ynaydi.

Hozirgi poetik asarlarda, ba’zan prozada ham, xilma-xil uslubiy bo‘yoqlarni berish uchun hatto bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasida ergashtiruvchi bog‘loqchi vazifasida keladigan –chi yuklamasi qo‘llanmoqda.

Ba’zan bir gapning o‘zida ikki va undan ortiq har xil ma’noli bog‘lovchilar qo‘llanib, uslubiy vazifa bajarganini qo‘rish mumkin.

Sinonimiya hodisasi bog‘lovchilar orasida ham kuchli. Sinonimiya – bu, tenglik, bir xillik emas, buning ustiga tilda biror zaruriyatsiz, ehtiyojsiz o‘zgarish yuz bermaydi. Bog‘lovchilarning yakka yoki qo‘shaloq, hatto uch marta qo‘llanishi ham muayyan maqsad bilan bog‘langandir: ta’kid va zidlik ma’nosini berish uchun (-yu), -da yuklamalari bilan bir qatorda, lekin, ammo, biroq bog‘lovchilari ham qo‘llanadi.

Tenglik va zidlik ma’nolarini ifodalash uchun va, lekin bog‘lovchilari yonma-yon keladi.

Tenglik va ayiruv ma’nolarini bir yo‘la berish uchun va, yo bog‘lovchilari ishlatiladi. Zaruriyat tufayli ba’zan, ayniqsa, so‘zlashuv uslubida, ikki bir xil bog‘lovchi yonma-yon keladi, ammo lekin tarzida: Yurakni, suyakni davolasa bo‘aldi. Ammo-lekin qayta quruvchi demokratiyalarni davolab bo‘lmaydi. (Bu.d, 105-b). Omonatni topshirish kerakligini bilaman, ... Ammo-lekin shu omonatni qanday topshiraman. (Bu.d, 193-b).

Xullas, bog‘lovchilarning o‘ziga xos mohiyati, gapda o‘z o‘rni, uslubiy vazifasi bo‘ladi. Badiiy adabiyotda ba’zan teng bog‘lovchilardan oldin nuqta qo‘yib, ikkinchi gapni bosh harf bilan berish hollari uchraydi. Ayrim manbalarda bu gaplarni alohida sodda gaplar tarzida tasnif etishga moyillik bor. Ammo, lekin, biroq, yo, va kabilardan oldin nuqta qo‘yish yozuvchining ixtiyori bilan bog‘liq

hodisadir.<sup>1</sup> Gaplarni esa ajratib bo‘lmaydi, ular o‘z mazmuni bilan biri ikkinchisining tarkibiy qismiga aylanadi va yaxlit holda zidlik, ayirish yo biriktiruv munosabatini ifodalaydi. Demak, bunday gaplarning qo‘shma gap ekanini asoslashda bog‘lovchi muhim belgi bo‘lib qoladi.

Ayrim fe’l formalari o‘rnii bilan biriktiruvchi bog‘lovchilar o‘rnida qo‘llanishi mumkin.

Hozirgi nutq janrlarida -gach, -ib formalarining vazifasi ancha keng. Masalan, -gach, -ib uslub talabi bilan ba’zan ergashtiruvchi bog‘lovchilar vazifasini bajaradi. -gan, -da, -ish bilan, -gach, -ib kabi formalar o‘rnida -mi yuklamalaridan foydalanish mumkin.

-gan (-kan, qan) formasidan keyin kelib, payt bildirgan -da o‘rnida turli ko‘makchilar qo‘llanadi.

Sifatdosh formasi bilan birga keladigan -da o‘rnida fe’lning boshqa funksional formalari (-ib, -gach), shuningdek, ish oti formasi bilan ko‘makchisini keltirish orqali (-ish bilan) hosil etilgan vositalardan foydalanish mumkin.

Fe’l formalari ma’no hamda vazifa jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lganligi uchun gapda bir-birining o‘rnida qo‘llanaveradi. Bular ayniqsa -ib, -gach, -da, -ish bilan, -gan chog‘da va ularning fonetik variantlarida ochiq ko‘rinadi. O‘rni bilan ravishdosh va sifatdosh formalari o‘rnida hatto, -sa formasi kelishi mumkin.

Bunday vaqtida asosiy ma’no saqlanib qoladi. Lekin turli formalar o‘ziga xos qo‘shimcha ma’no bo‘yoqlarini ifodalaydi.

O‘xshatish ergash gapni o‘zaro bog‘laydigan vositalar ham bir-birining o‘rnini qoplaydi. -dek, -day, kabi, go‘yo, xuddi, yanglig‘, o‘xshab, bamisol va b.

Sabab ergash gapda qo‘llanadigan hamma bog‘lovchilar bir-birining sinonimi sanaladi.

To‘siqsiz ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar ham bir-biriga juda yaqin turadi, shunga ko‘ra ular o‘zaro almashinib qo‘llanishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983, 2045-бет.

Zidlikni kuchaytirish uchun fe'l formalari bilan bir qatorda afsus, biribir, qancha kabi modal so'zlar, yuklama vazifasidagi ham bog'lovchisi, ayrim olmoshlar qo'llanishi mumkin.

Ayrim ergash gaplar mazmuni bilan ham, bog'lovchi vositalari bilan ham bir-biriga sinonim bo'la oladi.

Ergash gaplarning ikkinchi bir tipi bosh gapga nisbiy so'roq olmoshlari yordamida bog'lanib, g'oyatda umumlashgan -qiyosiy mazmun munosabatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu olmoshlar qatoriga kim, nima, qaysi, qaer, qanday, qachon, nechta, nechanchi olmoshlari, ularning turli shakllari yoki ko'makchili holatlari kiradi.

Nisbiy olmoshlar ishtirokida shakllangan qo'shma gaplar ham mavjud.

Qo'shma gap va uning bog'lovchilari bilan aloqador masalalardan biri sodda gaplar tartibidir. Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning o'z o'rni bo'ladi. Bu o'rin bog'lovchisiz konstruksiyalarda qat'iydir. Bog'lovchili qo'shma gaplarda esa sodda gaplarning o'rni ayrim bog'lovchilarning qo'llanishiga qarab tayinlanadi.

Sabab ergash gap bosh gapga -ki uchun, shuning uchun, deb, -ganidan, sababli kabi vositalar yordamida bog'lansa, har doim birinchi o'rinda keladi.

Bog'lovchi ergash gap uchun muhim belgidir. Bosh va ergash gaplarning mazmuniy munosabatini, ergash gaplarning turini aniqlashda bog'lovchilar ma'lum darajada rol o'ynaydi. Bosh va ergash gaplarning o'rni stilistik va logik talablarga ko'ra o'zgarishi mumkin. Bunda mazmunga putur etmaydi.

Poetik asarlarda inversiya tabiiy hol sanaladi.

Hozirgi o'zbek tilida ergash gap bosh gapga nisbatan to'rt xil o'rinalashuvi mumkin:

- a) bosh gapdan oldin keladi. Bu hol ergash gaplarning aksariyati uchun normadir.
- b) bosh gapning o'rtasida keladi.
- v) bosh gapdan keyin keladi.
- g) ergash gap bosh gapning ikki tomonidan keladi.

Ergash gaplar tartibi erkinligining asosiy sabablaridan biri yozuvchi yo so‘zlovchining uslubidir, muallif biror bog‘lovchini tanlab, shunga ko‘ra bosh va ergash gaplar tartibini ham belgilaydi.

### **3.4. Ergashgan qo‘shma gap.**

Ergashgan qo‘shma gaplar teng komponentlarning tobelanishi orqali birikuvidan tuziladi.<sup>1</sup> Bu komponentlar orasida fikriy, grammatik va intonatsion butunlik mavjud bo‘ladi. Ergashgan qo‘shma gap qismlariga 1) fikrda nisbiy mustaqillik; 2) predikativ munosabat; 3) komponentlar orasida nisbiy tugal intonatsiya xos.

Ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi har bir sodda gap mazmunan nisbiy aloqadadir. Bu predikativ qismlar bosh gap, ergash gap deb yuritilishidan qat’iy nazar, bir-biriga mazmunan bog‘lanadi, bir-birini izohlaydi, aniqlaydi, to‘ldiradi. Ergash gap bosh gapga ergashadi, bosh gap esa mustaqilday ko‘rinsa ham, ergash gap tomonidan izohlanadi. SHuning uchun ularni alohida-alohida mustaqil gap deb bo‘lmaydi.

Qo‘shma gap qismlarining har birida predikativ munosabat aks etgan bo‘lishi kerak: To‘rdagilar chapak chalsa, men chaldim. To‘rdagilar oyoqqa tursa, men-da turdim. (O.q.d, 156-b). Men paxta bilan yuzma-yuz bo‘lib, men ham o‘zbek dehqonini bilmasligimni angladim. (O.q.d, 269-b).

Qo‘shma gap komponentlarida ba’zan ega yashirinishi, bunday qism faqat kesim bilan ifodalanishi ham mumkin: Aqrab, agar qochsang, bolalaringni otamiz. (O.q.d, 39-b).

Har qanday gap to‘liq yoki to‘liqsiz, bir sostavli yoki ikki sostavli bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’lum bir intonatsion tugallik bilan talaffuz qilinadi. Ergash gapga xos intonatsion tugallik ifodalanmasa ham, ergash gapning bosh gapdan ajralib turishini va unga tobe ekanligini ta’minlaydi. SHuning uchun maxsus intonatsiya bilan aytilmaydigan ayrim birikmalarни ergash gap deb aytib bo‘lmaydi.

---

<sup>1</sup> Фуломов А. Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1987, 171-б.

Demak, ergash gap bo‘lishi uchun mazmundagi nisbiy tugallik, ega va kesim munosabatining mavjud bo‘lishi, hamda gaplarga xos intonatsiya bo‘lishi shart.

Ergashgan qo‘shma gaplar fikriy, grammatik va intonatsion butunlikdan iborat bo‘lib, ularning sostavidagi sodda gaplar sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga teng holda birikadi. Ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi komponentlar ko‘pincha ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasi bilan birikadi. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar hech qanday gap bo‘lagi bo‘lmay, ergash gap bilan bosh gapning grammatik aloqasini ko‘rsatuvchi vosita sanaladi. Bog‘langan qo‘shma gapda esa komponentlar teng bog‘lovchilar vositasida bog‘lanadi.

Ergashgan qo‘shma gaplardagi sodda gaplarning bog‘lanishida nisbiy so‘zlarning roli muhimdir.

Nisbiy so‘z vazifasida ko‘pincha so‘roq, belgilash olmoshlari, ayrim ravishlar ishlatiladi. Nisbiy so‘zlar ergash gap bilan bosh gapni bog‘labgina qolmay, har bir komponentda ma’lum bir gap bo‘lagining vazifasini ham bajaraji. Bularning ergash gap va bosh gap tarkibida ishlatilishi quyidagi tartibda bo‘ladi: oldingi gapdagi olmosh yoki ravishga mos holda keyingi gapda ham olmosh yoki ravish keladi. bu so‘zlar ko‘pincha savol-javob tarzida ishlatilib, odatda savol tarzidagi so‘z oldingi gapda keladi: Qaerda xushhavo tabiat bo‘ladi-o‘sha er o‘ris uchun yurt bo‘ladi. (O.q.d, 42-b). Kimda kim uning ko‘zini shamg‘alat qilib epchillik bilan chopib borsa, shu g‘olib sanaladi. (O.k.o, 9-b).

Bog‘langan qo‘shma gapdagi birikish esa bundan boshqachadir: ular tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lashda fe’l kesimlarning zamon shakli, ayrim olmoshlarning ishlatilishi, so‘z formalarining takrorlanishi kabi hodisalarning ahamiyati kattadir: Kattalar tinch – olam tinch. (O.q.d, 185-b).

Ergashgan qo‘shma gapdagi komponentlar orasida tobelanish xarakteridagi intonatsiya bog‘langan qo‘shma gapda esa tenglik xarakteridagi intonatsiya qo‘llanadi. Ergashgan qo‘shma gapdagi ohang bog‘langan qo‘shma gapdagi ohingga nisbatan boshqaroq bo‘ladi: unda tovush avvalgi qismda ko‘tarilib, keyingi qismda ancha pasayadi.

Ergashgan qo'shma gaplar bosh va ergash gaplardan tashkil topadi. Bosh gap tuzilish jihatdan mustaqil sodda gaplarga o'xshaydi, ergash gap doimo bunday xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bosh va ergash gaplar maxsus ergashtiruvchi vositalarga ega bo'lishi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi.

Ergashgan qo'shma gapdagi ergash gapni bosh gapga tutashtirishda kesimni shakllantiruvchi affikslar ham muhim rol o'ynaydi:

Mabodo qochaman desang, katta yo'l chetginasidan yurgin. (O.q.d, 47-b).

Ergash gap bosh gapga bog'lanib, uning biror bo'lagini yoki butun bir bosh gapni izohlaydi. Ergash gap bosh gapdagi biror bo'lakni yoki butun bir bo'lakni izohlab, to'ldirib, aniqlab kelishi xususiyati bilan sodda gapdagi gap bo'laklariga o'xshaydi: CHumchuqlar ilon ko'rsa, ana shunday zorlanib chirqilladi. (O.k.o, 338-b).

Ergash gaplarning deyarli barchasi mustafil sodda gaplarga xos asosiy belgilarga – ma'lum mazmunni ifodalash, predikativlik munosabatini bildirish, pauza bialn ajralish xususiyatlariga egadir.

Gap bo'laklari ma'lum bir tushunchani bildirib, so'z bilan ifodalanadi, ergash gap esa tugallanmagan bo'lsa ham, ma'lum bir fikrni ifodalaydi va mazmunan boshqa bir gapga bog'lanib turadi, uni izohlaydi.

Ergash gap ham grammatik tomondan, xuddi sodda gap tiplari kabi nisbiy tugal fikr bildiradi, o'ziga xos ohang bilan aytildi; o'zida predikativlik belgilarini saqlaydi. Lekin semantik va uslubiy tomondan xuddi ikkinchi darajali bo'laklar kabi juda muhim uslubiy vazifa bajaradi: berilgan gap mazmuniga biror aniqlik kiritadi, biror muhim o'rinni izohlaydi, umumiyl tushunchani aniqlashtiradi, mazmunini to'ldiradi, o'rni bilan hatto zarur badiiy vosita o'xshatish, sifatlash, mubolag'a kabilar sifatida qo'llanadi. Demak, ergash gapdan, avvalo gap oldiga qo'yilgan fikriy talab, "aloqa ehtiyoji" tufayli foydalaniladi.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarga qiyosan olingan termindir. Aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol bosh bo'laklarsiz qo'llanmaydi; ega va kesimga ergashib, doim tobe vazifasida keladi.

Lekin ayrim yig‘iq gaplarni istisno qilganda, aksariyat gap ikkinchi darajali bo‘laklarsiz qo‘llanmaydi. Biror gapning to‘la shaklini tugalligini va etakchi ma’nosini ko‘rsatishda ikkinchi darajali bo‘laklar o‘ziga xos mohiyat kasb etadi.

Ergash gaplar haqida ham shunday deyish mumkin. Hozirgi o‘zbek tilining hamma nutq uslublarida shunday konstruksiyalar ko‘p uchraydi. Har ikki qismda ham ma’lum bir maqsad va o‘ziga xos intonatsion tugallik bo‘ladi, lekin uslub tomondan nimadir zarur bo‘ladi, hukmni ehtiyojini qondiradigan bo‘lak etishmaydi. Buni gaplarning mantiqiy yo‘nalishi, ham struktura ham, ifoda ham aniq ko‘rsatib turadi.

Bosh gapda ifodalanmay qolgan bo‘lak biror bo‘lak o‘rnida ekvivalent tarzida biror ergash gap olinishi mumkin.

Bosh gapning kesimi fe’l bilan ifodalansa, ergash gaplarga ko‘proq talab bo‘ladi, harakat va holatni konkretlashtirish uchun bir qator gap bo‘laklari zarur bo‘lib qoladi.

Bosh gapda ifodalanmay qolgan bo‘lak o‘rnida ba’zan shu, shuni, u, unga, undan, u erda, o‘sha kabi ko‘rsatish olmoshlarini qo‘llash mumkin.

Bu vaqtda bosh gap shaklan to‘liq gap tusini oladi, lekin mazmunda yana to‘liqsizlik seziladi, bu olmshlar ham g‘oyat umumlashgan, mavhum narsatushunchalarni bildiradi va aniq izoh talab qiladi.

Bunday holatda ham ergash gap bosh gapning olmosh bo‘laklarini izohlab, uning mavhum ma’nosini ochadi. Bunday gaplar yoyiq sodda gapga aylantirilganda, ergash gap bosh gapning olmosh bo‘lagi o‘rnini egallaydi.

Qo‘shma gap bilan sodda yoyiq gap orasiga uzil-kesil tenglik qo‘yib bo‘lmaydi, ular orasida ayrim tavofutlar bo‘ladi.

Tog‘ay Murod asarlarida ergash gapli qo‘shma gapning barcha turlari qo‘llangan. Ayniqsa, shart ergash gapli qo‘shma gaplar yozuvchi ijodida ko‘p ishlatilgan.

### **3.5. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gap**

O‘zgalarning hech o‘zgarishsiz, so‘zma-so‘z berilgan gapi ko‘chirma gap bo‘lib, uni avvalo tugal fikr, his-tuyg‘u ifodalanadi. SHu bilan birga, yozuvchi ko‘chirma gapdan uslubiy maqsadda ham foydalanadi. Uning vositasida obraz yaratiladi, qahramonga ma’lum darajada xarakteristika beriladi. Ba’zi personajlar nutqidan ularning ichki dunyosi, tashqi qiyofasini, tabiatini ham anglab olish mumkin: Birodarlar, mashina deganlari temir: joni yo‘q. Joni yo‘q temir odamga el bo‘lmaydi! Temirning yuragi yo‘q-da! Ot odamga el bo‘ladi. Boisi otning joni bor, yuragi bor-da (O.k.o, 106-b).

Ko‘chirma gap ko‘proq muallif gapi bilan birga qo‘llanadi. Bu vaqtda har ikki sodda gap birikib, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gapga sinonim bo‘ladi: ko‘chirma gap ham muallif gapini, uning kesimidan anglashilgan xilma-xil ma’nolarni to‘ldiradi. Muallif gapining kesimi, asosan, aytmoq va demoq fe’llarinining tuslangan formalari orqali ifodalanadi. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni uslub talabiga ko‘ra turlicha qurish mumkin: Ayolimiz: O‘-o‘y, juhudi atlas olib bersin, - deydi. (O.q.d, 95-b). Odamlar, Oqisarda ko‘pkari bo‘ladi! – dedi Nabi oqsoqol. Ana uloqni olib ketdi! Xohlaganlar borsin. Eslaringda bo‘lsin, kechasi olish bo‘ladi, ertaga yana ko‘pkari. Piyoda ko‘pkarisida bor ertaga piyoda poygayam bo‘ladi, ha! (O.k.o, 8-b).

Badiiy uslubda dialogik nutqda ko‘chirma gaplar tarkibida inkor va tasdiq ma’nosini ifodalovchi so‘zlar ham ishlataladi.

-Aytinglar,qani, men kimman?

- Kim bo‘lardingiz, o‘zimizning Botir qo‘shchi-da – dedi.

Qo‘shchi, yo‘q qornini olg‘a siltadi.

- Yo‘q! – dedi. –Ammo-lekin topolmadilaring! (Bu.d, 6-b).

Bu ko‘chirma gap inkor ma’nosini ifodalagan bo‘lsa, endigi misoldagi ko‘chirma gapda tasdiq ma’nosini anglashiladi: Mana shu men-a-dedi. Mana shu men! Aytinglar, qani, mana shu men kemman?

Dehqonlar tag‘in bir-biraviga qaradi.

- Ha, shu siz, shu siz! – dedi. (Bu.d, 6-7-b).

Badiiy uslubda ko‘chirma gaplar keng qo‘llanadi. Tog‘ay Murod asarlarida ham ko‘chirma gaplar ko‘p ishlatilgan, bu asar mazmunini ochishga xizmat qilgan.

Badiiy uslubda so‘zlovchining o‘z gapi ham ko‘chirma gap shaklida kelishi mumkin: “Ana endi minbarga chiqsam, meni birov aybsitmaydi, - dedim. Ana endi minbarga chiqsam, meni birov kamsitmaydi. Usta qissasi bor, deydi, uchta”, - dedim (Bu.d, 203-b). Otam qani .... deya ingillayman. (O.q.d, 29-b).

Ko‘chirma va o‘zlashtirma gap orasida sinonimiya – paralellik bo‘ladi.

Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga xos grammatik qonun-qoidalar va stilistik talablar asosida aylantiriladi.

His-tuyg‘u kuchli ifodalangan gaplarni, so‘z – gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirib bo‘lmaydi.

Tog‘ay Murod asarlarida ko‘chirma gap boshlanishida kirish so‘z va birikma, kirish gaplarning ishlatilish hollari uchraydi: Albatta, otga suv beradi-da, bo‘lmasa benzin berarmidi? (O.k.o, 111-b). Ayniqsa, ot egasiga o‘xshaydi deysizda. (O.k.o, 187-b). SHunday ekan, endi masalaga partiyaviy yondashaylik! (Bu.d, 89-b).

O‘lib ketgur, amal-mansab deganlari qovun-tarvuz bo‘lsa ekan, paykaldan uzib qo‘ltig‘iga qistirib yuborsang. (Bu.d, 100-b). Endi, gap bunday, otaxon. Siz ham, o‘rtoq Rajabov ham ona-Vatanga xizmat qilib qo‘ygan zotsizlar. (Bu.d, 118-b).

O‘ynab qo‘yay mehmondan, o‘ynab qo‘yay. Masalasi oson ekan. SHu bozordan qo‘y go‘shti olam bo‘lmaydimi? (O.q.d, 202-b).

Ko‘chirma gapda turli til vositalaridan o‘rinli foydalanish badiiy nutq emotSIONAL-ekspressivligini ta’minalash uchun xizmat qiladi.

Ko‘chirma gapli konstruksiyalar o‘zlashtirma gap bilan sinonimiya hosil qiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining gap qurilishida sintaktik sinonimiya imkinoyatlari juda katta. “Umuman stilistikada, shu jumladan, praktik stilistikada, - deb yozadi D.E.Rozental, - sinonimiya masalasi markaziy masaladir, -deydi”.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Розенталь Д.Э. Практическая стилистика русского языка. –М.: 1965, с-20.

Sinonimiya tasviriylar vositalar sistemasiga kirib, nutq madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgai uchun ham, uni o‘rganuvchi soha – stilistika til haqidagi fanlar sistemasida asosiy fanlar qatoridan o‘rin oladi. Grammatik sinonimlarni o‘rganish tilning grammatick sistemasini chuqurroq bilishiga ham yordam beradi.

## UMUMIY XULOSA

1. Badiiy uslubning xususiyatlarini aniqlashda sintaksisning o‘rnini nihoyatda muhimdir.

2. Sintaktik birliklar nutqning ma’lum vazifaviy uslubi bilan qat’iy bog‘liq bo‘lmaydi. Gapning u yoki bu ko‘rinishi, turli sintaktik kontruksiya va oborotlar ifoda vositalari sifatida nutqning barcha ko‘rinishlarida, jumladan badiiy uslubda ham qo‘llanaveradi.

3. Tilning sintaktik vositalari nutqda boy stilistik imkoniyatlardan hisoblanadi. Emotsional-ekspressiv ottenkalari bo‘lgan sintaktik hodisalar badiiy nutqda oz emas.

4. Badiiy uslubning o‘ziga xos sintaktik belgilari mavjud. Tog‘ay Murod asarlari uchun logik, intellektual nutq xosdir.

5. Tog‘ay Murod asarlaridagi ayrim sintaktik vositalar o‘z tabiatiga ko‘ra ekspressiv-tasviri vosita hisoblansa, ayrimlari faqat kontekstda ekspressivlik ifodalaydi.

6. Yozuvchi asarlarida badiiy poetik sintaksis birliklaridan ham foydalanylган. Bu hol yozuvchi uslubining tabiati bilan, asarlarida milliy xarakter yaratishga intilishi, obrazlilik, emotsional-ekspressivlikning kuchliligi bilan bog‘liqidir.

7. Sintaktik vositalarning nutq uslubliradi neytral va funksional xarakterdagilaridan badiiy uslub sintaktik stilistikasi uchun funksional sintaktik vositalar muhimdir.

8. Tog‘ay Murod o‘z ijodi orqali badiiy uslubning yuksak namunasini yaratdi, chunki u sintaksis imkoniyatlardan o‘z o‘rnida foydalana olgan, umumxalq tilining bor go‘zalligini ijodida ravshan namoyon qila olgan adibdir.

9. Umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga gap qurilishining tayyor va qat’iylashtirilgan usullaidan tanlab foydalanish imkoniyatini beradi. Tog‘ay Murod bu imkoniyatdan foydalanishdan tashqari o‘ziham sheva ta’sirida yangi-yangi sintaktik elementlarni badiiy uslubga olib kiradi. Zero, uning badiiy uslubi

so‘zlashuv uslubiga ko‘p jihatdan yaqin turadi. Bu yozuvchi ijodining xalqchilligi bilan izohlanadi.

10. Tog‘ay Murod ijodida Abdulla Qahhor yo‘lidan boradi, har bir so‘zni zargar misol tanlab ishlatadi. Uning asarlarini sintaktik stilistika nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, yozuvchining prozaik asarlari poetik asar darajasiga yaqinlashgan. Bu ayniqsa, uning asarlari nutqini ohangdor, ta’sirchan va jozibador qilgan, tinglovchiga asar g‘oyasini osonlik bilan qabul qildirgan stilistik vosita sifatidagi sintaktik figuralarni qo‘llaganligida ko‘rinadi.

11. Tog‘ay Murod o‘z asarlarining estetik ta’sirini kuchaytirishda foydalangan va uning o‘zi ijod etgan sintaktik birliklar yozuvchi uslubida til, obraz, xarakter va manzaralar yaratish vosita bo‘lib xizmat qilgan.

12. Tog‘ay Murod asarlarida sintaktik ifoda vositalaridan foydalanishdagi o‘ziga xos uslubi aks etgan.

13. Tog‘ay Murodning badiiy asarlari mantiqan publitsistik nutqni ham eslatadi, uning qahramonlari yo siyosat kishilar yo siyosiy hayot o‘z ta’sirini o‘tkazgan kishilar bo‘lib bu qahramonlarning nutqida publitsistik ruh sezilib turadi. Bu yozuvchi ijodining falsafiy xarakterga egaligini ko‘rsatadi.

14. Yozuvchining sintaktik ifoda vositalarini yaratishdagi dalilligi, u ishlatgan ko‘p sintaktik vositalar umumxalq o‘zbek adabiy tili va boshqa o‘zbek yozuvchisi ijodidan juda katta farq qilishi asarlaridagi obrazlarning ko‘pi milliy qahramonlar ekanligi sababli deyish mumkin.

15. Yozuvchi ijodida qo‘llangan sintaktik birliklar badiiy uslubni boshqa vazifaviy uslublardan farqlashda muhim vosita hisoblanadi. Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan har bir sintaktik ifoda vositasi o‘zbek tilining boyishiga, uning taraqqiyotiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. – T: O’zbekiston, 1998.
2. Karimov.I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-T.:O’zbekiston 2001.
3. Karimov. I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q – T.: SHarq, 1998.
4. Karimov.I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida. – Toshkent, "O’zbekiston" nashriyoti. 1997.
5. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, "Ma’naviyat" nashriyoti. 2008.
6. Karimov.I.A. Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. “Xalq so’zi” gazetasi. 2010 yil, 30 yanvar soni.
7. Karimov.I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ustivor maqsadimizdir."Xalq so’zi" gazetasi. 2011 yil, 28 yanvar soni.
8. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. II tom. – Toshkent, “O’zbekiston”, 1996.
9. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tuchunsha va tamoyillar,-T.: O’zbekiston. 1999.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so’zi. – Toshkent, 2017, 23 dekabr, №258.

### **II. Ilmiy va nazariy adabiyotlar:**

1. Abdullaev A. O‘zbek tilshunosligining ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. – T.: Fan, 1987.
2. Abdurahmonov G‘. O‘Zbek tili grammatikasi. – T.: O‘qituvchi, 1996.
3. Adabiyot nazariyasi. – T.: Fan, 1977.

4. Asqarova M., Tumanov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: O‘qituvchi, 1987.
5. Begmatov E. va boshqalar. O‘zbek nutqi madaniyati, ocherklari. – T.: Fan, 1988.
6. Gvozdev A.N. – Ocherki po stilistike russkogo yazыke. – M.: Uchpedgiz, 1985.
7. Doniyorov A. Badiiy nutq stilistikasidan materiallar. – T.: 1988.
8. Doniyorov X. va boshqalar. Adabiy til va badiiy stil. – T.: Fan, 1988.
9. Efimov A.I. Stilistiki russkogo yazыka. – M.: Prosveschenie, 1969.
10. Ziyodova T.U., SHamsiev M.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili uslubiyati. – T.: Fan, 2003.
11. Zolotova G.A. O xaraktere normы v sintaksise. Sintaksis i normы. –M.: Uchpedgiz, 1974.
12. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980.
13. Qo‘ng‘urov R.Q. va boshqalar. O‘zbek tilining funksional stillari. – S.: SamDU, 1984.
14. Lapasov N. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: O‘qituvchi, 1995.
15. Mamajonov A. Qo‘shma gap stilistikasi. – T.: Fan, 1990.
16. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – T.: O‘zbekiston, 1992.
17. Nurmonov A., Rasmulov R. O‘zbek tili shevalarda. – T.: O‘qituvchi, 1993.
18. Pishkovskiy A.M. Russkiy sintaksis v nauchnom osvеshchenii. –M.: 1986.
19. Rahmonov G.R. O‘zbek tilida lug‘aviy sinonimiya va graduonimiyaning o‘zaro munosabati. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona, 2018.
20. Solijonov I. XX asrning 80-90 yillari nasrida badiiy nutq poetikasi. – T., 2002.
21. Sultonsaidova. O‘zbek tili stilistikasi. – T.: TDPI, 2001.
22. Tojiev Yo. va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: O‘qituvchi, 1984.

23. O‘rinboev B. va boshqalar. Badiiy matnning lingvistik tahlili. – T.: O‘qituvchi, 1990.
24. SHomaqsudov va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi. – T.: O‘qituvchi, 1983.
25. SHukurov M. va boshqalar. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari amaliyoti. – T., 1992.

### **III. Internet ma’lumotlari:**

1. www. ziyonet.uz.
2. http:// google.ru/
3. http:// www. google. com.
4. http:// www. edi.